



BOLALAR PEDAGOGİKASI




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI

Jabborova Onaxon Mannapovna
Ochilov Fariddun Izatulloevich

BOLALAR PEDAGOGIKASI

60112600 – “Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda
xorijiy til” (ingliz tili) bakalavr yo'nalishi
talabalari uchun
DARSLIK



«ZEBO PRINT»
Toshkent – 2022

UO'K: 721.512.14
KBK: 73ya65.1

J-56

Jabborova O.M., Ochilov F.I. Bolalar pedagogikasi // Darslik. Toshkent.
"Zebo print", 2022. – 116 bet.

Mazkur Darslik yangi o'quv fani "Bolalar pedagogikasi" bo'yicha ilk bor tayyorlangan bo'lib, unda ushbu fanning davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablari, shuningdek, uning asoslari milliy va xorijiy ta'lim tajribalari asosida yoritib berilgan. Darslikda o'qitishning kredit-modulli tizimi talablari hisobga olingan va u 60112600 – "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til" (ingliz tili) bakalavr yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Shukurullo Qo'idoshevich Mardonov, pedagogika fanlari doktori, professor.

Tag'rizchilar:

Safo Matchon, pedagogika fanlari doktori, professor.

Mavjuda Tiliyakova, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-0876 raqamli buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9943-8555-4-0

MUNDARIJA

1-MODUL: BOLALAR PEDAGOGIKASIDA TA'LIM	4
1-mavzu: Bolalar pedagogikasiga kirish	4
2-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar	10
3-mavzu: Maktabgacha ta'lim xususiyatlari	17
4-mavzu: Boshlang'ich ta'lim asoslari	23
5-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni intellektual rivojlantirish	28
2-MODUL: BOLALAR PEDAGOGIKASI DIDAKTIKASI	33
6-mavzu: Didaktika – bolalar pedagogikasida o'qitishning asosi sifatida	33
7-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish asoslari	40
8-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish texnologiyasi	45
9-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllari	51
10-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar o'zlashtirishini baholash indikatorlari	57
3-MODUL: BOLALAR PEDAGOGIKASIDA TARBIV	64
11-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash asoslari	64
12-mavzu: Maktabgacha ta'lim oluvchilarni tarbiyalash	72
13-mavzu: Boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash	77
14-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sensor tarbiyasi	85
15-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari	92
"Bolalar pedagogikasi" o'quv fani bo'yicha metodik tavsiyalar	99
Mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlari	106
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	108
Glossariy	110

I-MODUL. BOLALAR PEDAGOGIKASIDA TA'LIM

“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da pedagogik ta'lim sifatini oshirish, professional pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini kuchaytirish va bu borada innovatsion yondashuvlarga asoslanish vazifalari qo'yilgan. Shu jihatdan mazkur “Bolalar pedagogikasi” o'quv fani ana shunday yangicha yondashuvlarning hosilalaridan biri hisoblanadi. Fanning ushbu I-modulida Bolalar pedagogikasi mazmuni, maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar, maktabgacha ta'lim xususiyatlari, boshlang'ich ta'lim asoslari hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni intellektual rivojlantirish mavzulari yoritilgan.

I-mavzu: Bolalar pedagogikasiga kirish

Reja:

1. “Bolalar pedagogikasi” tushunchasining mazmuni.
2. “Bolalar pedagogikasi” – Umumiy pedagogikaning tarkibi sifatida.
3. “Bolalar pedagogikasi”ni o'rganishning ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: pedagogika, fan, ta'lim, bolalar, tushuncha, tarkib, umumiylik, sifat, mazmun, o'rganish, tushunish.

“Bolalar pedagogikasi” tushunchasining mazmuni. “Pedagogika” fanida hozirgi zamon innovatsion rivojlanish talablari asosida yangilanish, takomillashish va amaliy samaradorlikka erishish jarayoni kechmoqda. Buning uchun milliy pedagogik tajriba, xorijiy mamlakatlarning pedagogik an'analari va xalqaro ta'lim dasturlari qoidalarining uyg'unlashuvi asosida fanning takomillashuvi muhim hisoblanadi. Bugungi kunga qadar ilm-fanning barcha sohalarida qatorida “Pedagogika” fani ham ana anaviy shaklda bo'lib kelgan. Ayni paytda, dunyoning globallashuvi va innovatsion rivojlanish jarayoni mazkur fanning takomillashib borish jarayonini ham taqozo etmoqda. Shu jihatdan fanning yangi yo'nalishlari, tarmoqlari va isloqiboli sohalarini yuzaga keltirib. Fanga oid ba'zi yo'nalishlarda mustaqil o'quv fani sifatida shakllanish jarayoni kechmoqda.

Bularning barchasi xalqaro ta'lim hujjatlarida aks etgan bo'lib, bunday yangilanishlar va takomillashtirishlar shaxsga ta'lim berish samaradorligiga erishishga olib kelishi kerak. Shu sababli “Pedagogika” fani negizida yuzaga kelayotgan yangicha o'quv fanlari muayyan mamlakatning pedagogik tajribasi va jamiyatning ehtiyoji hosilasi hisoblanadi. Ana shunday yangi o'quv fanlaridan biri *“Bolalar pedagogikasi”*dir.

Mamlakatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida va “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan vazifalarning ijrosi jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda pedagogik jarayonni kuchaytirish ehtiyoji paydo bo'ldi. Bunda, avvalo, mazkur tizimda xorijiy tillar bo'yicha (ingliz tili) saboq beradigan oliy ma'lumoti pedagog kadrlarning pedagogik qonuniyatlari, asoslar, nazariy omillar va metodologik yo'nalishlardan yaxshi xabardor bo'lishi taqozo etiladi. Chunki maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar xorijiy tilni dastlabki bosqichda o'zlashtiruvchi shaxslar sifatida o'ziga xos pedagogik munosabatlarga ehtiyoj sezadi. Bunda pedagogik munosabatlar “Pedagogika” fanning asrlar davomida shakllanib kelgan tajribalarining eng muhimlariga asoslanishi, mazkur yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha jahon xalqlari pedagogik tajribalarining eng yaxshi yutuqlarini amaliyotga joriy etishi va saboq berayotgan pedagog kadrlarning individual pedagogik uslublarga ega bo'lishi muhim hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarga xorijiy tillardan saboq beruvchi bo'lajak pedagog kadrlar uchun “Bolalar pedagogikasi” yangi o'quv fanini ta'sis etish zaruriyati paydo bo'ldi va bu fan pedagogik tajribalarining eng muhim yutuqlariga asosan tarkib topdi.

“Bolalar pedagogikasi” o'quv fani yangi pedagogik fanlardan bo'lib, u Umumiy pedagogika predmetining tarkiblaridan biri hisoblanadi. Mazkur fan o'zbek pedagogik ta'limi va pedagogik tadqiqotchilarning hosilasi bo'lib, unda 3-11 yoshli bolalarga ta'lim berish, o'qitish va ularni tarbiyalash asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiya beriladi. Mazkur fan oliy pedagogik ta'lim jarayonida 2021-2022 o'quv yilidan boshlab o'qitish jarayoniga kiritildi.

“Bolalar pedagogikasi” o'quv fani umumiy pedagogik qonuniyatlari, metodlar va texnologiyalarga asoslanadi. Uning asosiy maqsadi maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalariga

kasbiy bilim va kasbiy pedagogik kompetensiyalarni berishdan iborat. Fanining ob'ekti 3-11 yoshli bolalarni aqliy, jismoniy, estetik, axloqiy rivojlantirish va ularni mehnatga ko'niktirish asoslari tashkil qiladi.

"Bolalar pedagogikasi" o'quv fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- bo'lajak maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga ushbu fan asoslari bo'yicha amaliy – kasbiy bilim berish;
- mazkur toifa o'quvchilarining kasbiy ko'nikmasini shakllantirish;
- ushbu toifa o'quvchilarining 3-11 yoshli bolalarga ta'lim berish malakasini tarkib toptirish;
- bu toifa o'quvchilarini 3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash asoslari bilan tanishtirish;
- bu toifa o'quvchilarining 3-11 yoshli bolalarni boshqarish kompetensiyalarini tarkib toptirish.

Bu vazifalar o'quv fanining negizini tashkil etadi.

"Bolalar pedagogikasi" fani aslida Pedagogika predmetining negizidir. Chunki "pedagogika" atamasi bolalarni tarbiyalash va ularni yo'naltirish ma'nosini anglatishi ma'lum.¹ Shu ma'noda mazkur yangi faning nomi pedagogikaning asil atamasi mazmunini ifodalaydi va bu fan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha asosiy vazifani bajaradi:

- 3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash jarayonini boshlab beradi;
- bu yoshdagi bolalarga dastlabki tarzda ta'lim beradi;
- mazkur yoshdagi bolalarning hayot va faoliyat ko'nikmasini shakllantirish ishini amalga oshiradi.

Bolalar pedagogikasi fanining asosiy maqsadi va mazmunini tushunish uchun umumpedagogik fanlar mazmunidan keilib chiqiladi. Shu jihatdan mazkur faning Pedagogika fanlari orasida tutgan o'rni belgilanadi. Ayni paytda, faning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularning asosiy lari quyidagilardan iborat:

- fan shaxsning dastlabki tarbiya jarayonini boshlab beradi;
- bolalarni bilim olamiga olib kirish nazariyasi, didaktikasi, metodologiyasi va amaliyoti bilan talabalarni tanishtiradi;
- xorijiy til bo'yicha bo'lajak mutaxassis-pedagoglarning kasbiy-pedagogik bilimi, ko'nikmasi va malakalarini shakllantiradi;

- mazkur toifa o'quvchilarini 3-11 yoshli bolalar bilan ishlash faoliyatini rivojlantiradi.

Bularning barchasi Bolalar pedagogikasi fanining mazmunini tashkil etadi va ularni chuqur o'zlashtirish taqozo etiladi.

E'tibor berilsa, "Bolalar pedagogikasi" yangi o'quv fanining mazmuni pedagogik ta'lim va tarbiyaning hamda amaliyotning negizini tashkil etadi.

"Bolalar pedagogikasi" – Umumiy pedagogikaning tarkibi sifatida.

"Bolalar pedagogikasi" o'quv fani Umumiy pedagogikaning tarkibi sifatida quyidagilarga asoslanadi:

- shaxsga ta'lim berish;
- shaxsni o'qitish;
- shaxsni tarbiyalash;
- shaxsni faoliyatga tayyorlash.

Umumiy pedagogikaga xos bo'lgan ushbu asoslar "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanining negizi sifatida qabul qilinadi.

Pedagogika fani asosan quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bo'lajak pedagoglarga "Pedagogika" fanining ma'no-mazmuni, uning manbalari va rivojlanish bosqichlari to'g'risida ma'lumot berish;

- pedagogik amaliyot, pedagogikaning asosiy kategoriyalari va mazkur faning umummadaniy ahamiyati to'g'risida bilim berish;

- shaxsni tarbiyalashning mazmuni, predmeti, maqsadi, jarayoni, tarbiyaviy vositalar, tarbiya turlari, modellari, usullari va tarbiyaga qo'yiladigan talablar bilan bo'lajak pedagoglarni qurollantirish;

- o'qitish qonuniylari, modellari, turlari, usullari va texnologiyalari bo'yicha bo'lajak pedagoglarning kompetensiyalarini shakllantirish;

- bo'lajak pedagoglarga zamonaviy ta'lim talablari, innovatsiyalari, xalqaro ta'lim dasturlari va pedagogik tajribalar to'g'risida kasbiy ko'nikma berish;

- bo'lajak pedagoglarga pedagogik muloqot, pedagogik rahbarlik va ta'lim oluvchilarni bilish kabilar bo'yicha kasbiy malaka berish;

- o'quvchilar shaxsining asoslari bilan bo'lajak pedagoglarni tanishtirish.²

¹ Бордовская Н.В., Рсан А.А. Педагогика. – СПб.: "Питер". 2001. – с. 9.

² Shu manba.

Bularning barchasi "Bolalar pedagogikasi" o'quv fani ob'ekti hisoblanadi. Ayni paytda, mazkur fanning quyidagi o'ziga xos ob'ekti mavjud:

- 3-11 yoshli bolalarni ijtimoiylashtirish;
- 3-11 yoshli bolalarning jismoniy, aqliy va ruhiy imkoniyatlari bo'yicha bilim berish;
- 3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash asoslari bo'yicha tanishtirish;
- 3-11 yoshli bolalarni ta'lim berish asoslari bilan qurallantirish.

O'quv fani Umumiy pedagogikaning nazariy, metodologik, didaktik va amaliy asoslariga tayanadi. Shuningdek, Pedagogika nazariyasi va tarixi, Pedagogik mahorat hamda Pedagogik texnologiyalar fanlarining yutuqlari, asoslari, yondashuvlari va amaliyotidan foydalanadi. Shu bilan birga, Bolalar pedagogikasi fanining individual tarixi, ilmiy-nazariy asoslari, didaktikasi va metodologiyasi mavjudligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, mazkur fanning tarixi juda boy manbalarga ega bo'lib, bu manbalarni o'zlashtirish bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim bilimlarni beradi. Masalan, Abu Ali ibn Sino (980-1037) tomonidan "Shifo" asarida bolalarni bugungi kungacha amalda bo'lib kelayotgan jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiyalash nazariyasi, metodologiyasi hamda amaliy xususiyatlari ishlab chiqilgan. Buning natijasida XVIII asrda Yevropa mamlakatlari pedagogikasida Ibn Sinoning ana shu metodologiyasi qabul qilingan. Mazkur metodologiyaga bugungi kunda ham qat'iy amal qilib kelinayotganligini eslatib o'tish joiz. Faqat XX asrda bu metodologiyaga ruhiy tarbiya, estetik tarbiya, fuqarolik tarbiyasi va mehnat tarbiyasi qo'shilgan. E'tibor berilsa, Ibn Sinoning metodologiyasi ming yildan buyon amalda bo'lib kelmogda. Shu jihatdan mazkur fanning nazariyasi va tarixi o'ziga xos ekanligini tushunib olish lozim.

Bularning barchasi "Bolalar pedagogikasi" yangi o'quv fanini Umumiy pedagogika tarkibidagi o'rinni belgilaydi.

"Bolalar pedagogikasi"ni o'rganishning ahamiyati. Mazkur fanning ahamiyati eng avvalo, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat yo'nalishi talabalarini bolalar pedagogikasi bo'yicha kadrlar sifatida voyaga etkazish bilan belgilanadi. Shu sababli mazkur yo'nalish talabalari ushbu fan bo'yicha quyidagilarni chuqur o'zlashtirishi lozim:

1. *Bolalar pedagogikasida ta'lim masalasi.* Bunda quyidagilar bo'yicha nazariy-kasbiy bilimlarni egallash tagozo etiladi:

- "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanining mazmuni;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar;
- maktabgacha ta'lim xususiyatlari;
- boshlang'ich ta'lim asoslari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni intellektual rivojlantirish;

2. *Bolalar pedagogikasida didaktika masalasi.* Bunda quyidagilar bo'yicha kompetensiyalarni egallash zaruriyat hisoblanadi:

- Didaktika – bolalar pedagogikasida o'qitishning asosi sifatida;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish asoslari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish texnologiyasi;

- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllari;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash indikatorlari.

3. *Bolalar pedagogikasida tarbiya masalasi.* Bunda quyidagilar bo'yicha malakalarni egallash shart:

- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash asoslari;
- maktabgacha ta'lim oluvchilarni tarbiyalash;
- boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sensor tarbiyasi;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari.

Diqqat qilinsa, mazkur masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallash maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun zaruriydir. Chunki bu talabalar xorijiy til mutaxassisleri bo'lgani holda, aynan "Bolalar pedagogikasi" o'quv fani vositasida pedagogik kompetensiyalarni egallaydi.

Amaliy mashg'ulot

Amaliy mashg'ulot seminar shaklida an'anaviy yoki masofaviy ta'lim shaklida o'tkaziladi va quyidagi masalalar bo'yicha suhbat qilinadi:

1. "Bolalar pedagogikasi" tushunchasining mazmuni.

2. "Bolalar pedagogikasi" – Umumiy pedagogikaning tarkibi sifatida.
3. "Bolalar pedagogikasi" ni o'rganishning ahamiyati.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Bolalar pedagogikasi tushunchasining mazmuni bo'yicha referat yozing va uning taqdimotini tayyorlang.
2. "Bolalar pedagogikasi" – Umumiy pedagogikaning tarkibi sifatida" mavzusida konspekt tayyorlang.
3. "Bolalar pedagogikasi" ni o'rganishning ahamiyatini yozib oling va esda saqlang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: "O'qituvchi". 1991.
2. Бодровская Н., Пеан А. Педагогика. – СПб., 2001.
3. www.Pedagog.uz.

Mazkur adabiyotlar tavsiyaviy xarakterga ega, shu sababli yuqoridagi matndan umumli foydalaning.

2-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. Davlat ta'lim standartlarida 3-11 yoshli bolalar ta'limiga qo'yiladigan talablar.

Tayanch tushunchalar: maktab, boshlang'ich ta'lim, bog'cha, muassasa, normativ, huquq, hujjat, qonun, bilim, ko'nikma.

Mamalakatimizda 2022-2026 yillarda "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni amalga oshirish jarayoni kechmoqda. Mazkur strategiyada belgilangan asosiy vazifalardan biri maktabgacha va boshlang'ich

ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslarini kuchaytirish, Kodeks darajasida to'g'ridan-to'g'ri amal qiladigan qonuniy asoslarini yaratish va ular orqali ta'lim-tarbiya jarayonini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha va boshlang'ich ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda milliy pedagogik tajriba, jahon xalqlarining sohaga oid yutuqlari va xalqaro ta'lim dasturlarining qoidalariga uyg'un asoslaniladi. Ayni paytda, mazkur asoslar milliy qadriyatlar hamda umuminsoniy qadriyatlarining uyg'unligi tamoyiliga tayanadi. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang'ich ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari bo'yicha pedagog kadrlarning chuqur kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va o'ziga xos metodlarga ega bo'lishi taqozo etiladi. Bu borada ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bo'yicha saboq beradigan bo'lajak o'qituvchilarning yetarli darajada kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarga egaligi taqozo etiladi. Bu o'rinda ana shunday me'yoriy-huquqiy hujjatlarning eng asosiy tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Kezi kelganda eslatib o'tish joizki, amaliy faoliyat davrida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim me'yoriy-huquqiy hujjatlarida o'zgartirishlar va qo'shimchalar bo'lishi mumkin. Bunday sharoitda amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarning kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga asoslanishi tavsiya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. Mazkur Qonun O'zbekiston ta'lim tizimida birinchi bor qabul qilindi va u 2021-yil 16-iyun kuni amalga kiritildi. Qonun aslida 2019-yil 22-oktyabrda qabul qilingan va o'tgan vaqt davomida uni amalga kiritish uchun tashkiliy-huquqiy ishlar amalga oshirildi.

Qonun 11 bob va 58 moddadan iborat. Qonunning boblari quyidagicha nomlangan:

- umumiy qoidalar (1-6-moddalar);
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini tartibga solish (7-14-moddalar);
- maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari (15-17-moddalar);
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish (18-27-moddalar);

- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish (28-31-moddalar);
 - maktabgacha bo'lgan yosh davrlari. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish (32-35-moddalar)
 - maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, ularning huquqlari va majburiyatlari (36-44-moddalar);
 - maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy himoya qilish (45-47-moddalar);
 - maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi (48-51-moddalar);
 - maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta'minoti (52-53-moddalar);
 - yakunlovchi qoidalar (54-58-moddalar).
- E'tibor berilsa, ushbu Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya masalalari batafsil tavsiflab berilgan.
- Qonunga binoan bolalarning tug'ilgan paytidan 7 yoshgacha bo'lgan davri *maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshi* hisoblanadi (3-modd).
- Qonunga ko'ra, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
- har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi;
 - har bir bolaning iste'dodi nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi;
 - maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi;
 - maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi;
 - bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv;
 - maktabgacha va umumiy o'rta ta'limning izchilligi hamda uzluksizligi;
 - ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda dunyoviy xususiyatga egaligi;
 - ta'lim-tarbiya jarayonining shaffofligi va ochiqligi;

- maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga hamda sog'lig'i holatiga muvofiqligi (4-modd).
- Shuningdek, mazkur Qonunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari *pedagoglarning* quyidagi huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan:
- kasbiy sha'ni, qadr-qimmatini va ishtirokchilarning obro'sini himoya qilish;
 - ijodiy tashabbus ko'rsatish, ta'lim va tarbiya uslubiyotlarini, o'quv qo'llanmalari hamda ta'lim vositalarini erkin tanlash;
 - maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda ishtirok etish;
 - maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
 - pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirish;
 - maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lmagan ish turlariga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi, bundan qonun hujjatlarida tutilgan hollar mustasno.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:
- bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi;
 - pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatandashlik, mehnatga, qonuniy vakillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyostron munosabatlarda bo'lish ruhida tarbiyalashi;
 - maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi;
 - o'z malakasini oshirishi;
 - o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki bolalarni qonun hujjatlariga zid bo'lgan harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi (39-modd).

Maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan pedagoglar ushbu huquq va majburiyatlarni o'zlashtirishi shart.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari mazkur Qonunning ana shu mazmun-mohiyatini chuqur bilishi taqozo etiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Mazkur Qonunning yangi tahriri 2020-yil 19-mayda qabul qilinib, 2020-yil 23-sentyabr kuni amalga kiritildi. Bu Qonun avvalgi variantlardan tubdan farq qiladi va shu sababli uning ushbu yangi tahririga asoslanish taqozo etiladi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 11 bob, 75 moddadan iborat. Qonunning mazmuni boblar bo'yicha quyidagilardan iborat:

- umumiy qoidalar (1-5-moddalar);
- ta'lim tizimi, turlari va shakllari (6-22-moddalar);
- ta'lim tizimini boshqarish (23-28-moddalar);
- ta'lim faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish (29-43-moddalar);
- ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi (44-46-moddalar);
- ta'lim oluvchilar, ularning ota-onasi hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari (47-51-moddalar);
- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini jiiimoiy himoya qilish (52-56-moddalar);
- nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyati to'g'risida (57-61-moddalar);
- ta'limni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (62-66-moddalar);

- ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik (67-69-moddalar);
- yakunlovchi qoidalar (70-75-moddalar).

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining Qonunning ana shu mohiyatini o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Qonun bilan O'zbekiston ta'lim tizimiga quyidagi yangi ta'lim shakllari amalga kiritildi:

- masofaviy ta'lim (16-modd);
- dual ta'lim (ham o'qib, ham ishlash) (17-modd);
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish (18-modd);
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish (androgogika) (19-modd);

- inklyuziv ta'lim (20-modd);
- eksternat tartibidagi ta'lim (21-modd).

Bu yangi ta'lim shakllari xalqaro ta'lim tajribalari asosida ta'lim tizimimizga kiritilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Shu sababli Qonunda ta'limga oid milliy va xalqaro tajribalar o'z ifodasini topgan.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari mazkur Qonunni o'zlashtirishi shart hisoblanadi.

Davlat ta'lim standartlarida 3-11 yoshli bolalar ta'limiga qo'yiladigan talablar. Bu masalada quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. *Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartlari.* Ular quyidagi hujjatlarni qamrab oladi:

- davlat standartining maqsadi, asosiy vazifalari va prinsiplari;
- maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasini;
- davlat standartini joriy etish hamda unga rioya etilishini nazorat qilish;
- davlat standartining tarkibiy qismlari, jumladan:
- ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, reabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me'yori¹.

2. *Boshlang'ich ta'lim davlat standartlari.* Mazkur hujjatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasini;
- umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. // www.lex.uz.

- umumiy o'ra ta'limning malaka talablari;
- baholash tizimi.⁴

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabarlari ana shu standartlarni bilishi va o'zlash-tirishi kerak. Chunki davlat ta'lim standartlarida quyidagilar belgilanadi:

a) bolalarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiya darajasiga qo'yiladigan talablar;

b) maktabgacha va boshlang'ich ta'limning zaruriy va yetarli darajasi bo'yicha qo'yiladigan talablar;

v) maktabgacha va boshlang'ich ta'limning o'quv yuklamalari hajmiga qo'yiladigan talablar.

3. *Bolalar tarbiyasi talablari.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyasi uchun mazkur fan vositasida quyidagi talablar qo'yiladi:

- 3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash bo'yicha tajribalar, nazariy qarashlar va metodologik omillarga qat'iy amal qilish;

- mazkur toifa bolalarni tarbiyalashda oila va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish;

- bu toifa bolalarning tarbiyasini davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida amalga oshirish;

- ushbu toifa bolalar tarbiyasida yangicha yondashuvlar, individual metodlar va tajribaviy yo'nalishlarga tayanish.

Ushbu talablar 3-11 yoshli bolalarning tarbiyasida o'ziga xos tarzda yondashishni taqozo etadi. Misol uchun, har bir tarbiyaviy tadbir yoki mashg'ulot yangiliklarga boy hamda individual xususiyatga ega bo'lishi kerak. Buning natijasida bolalar tarbiyasida o'ziga xos yondashuvlarga erishiladi. Shuning uchun bularni o'zlashtirish pedagoglar uchun zaruriyat hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabarlari ular bo'yicha kompetensiyaga ega bo'lishi taqozo etiladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi masalalar bo'yicha savol-javob o'tkaziladi:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni mazmuni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni mohiyati.
3. Davlat ta'lim standartlarida 3-11 yoshli bolalar ta'limiga qo'yiladigan talablarning xususiyati.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni mazmunini konspekt qiling.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni mohiyatini o'zlashtiring.
3. Davlat ta'lim standartlarida 3-11 yoshli bolalar ta'limiga qo'yiladigan talablarning xususiyatlarini yozib oling.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // www.lex.uz.
3. Pedagogika fanidan izohli lug'at. J.Hasanboyev va boshq. – T.: "Fan va texnologiya". 2009.

3-mavzu: Maktabgacha ta'lim xususiyatlari

Reja:

1. Maktabgacha ta'limda 3-6 yoshli bolalarga ta'lim berish mazmuni.
2. Bolalarni o'qish, yozish, sanoq va chizishga ko'niktirish.
3. Bolalarni maktabga tayyorlash asoslari.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, maktab, maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim berish mazmuni, savodxonlik, tayyorlash, ko'niktirish, asos, malaka.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAKTABGACHA TA'LIM BERISH MAZMUNI
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'ra ta'limning Davlat ta'lim standartlari" // www.lex.uz.

Maktabgacha ta'limda 3-6 yoshli bolalarga ta'lim berish mazmuni.

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuniga binoan maktabgacha ta'lim 3-6 yoshli bolalar uchun amalgacha oshiriladi. Bunda 3 yoshli maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari "Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning Davlat standartlari" asosida ta'limning dastlabki bosqichi bilan qamrab olinadi. Buning uchun "Maktab ta'limining namunaviy o'quv rejasini" ishlab chiqilgan bo'lib, unda bolalarning aqliy, jismoniy va ruhiy imkoniyatlari hisobga olingan, fanlar bo'yicha tabaqalashtirilgan ta'lim amalgacha oshiriladi. Umuman, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga beriladigan tabaqalashtirilgan ta'lim yoshga nisbatan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- 1) 3 yoshdan 4 yoshgacha bo'lganlar guruhi;
- 2) 4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lganlar guruhi;
- 3) 5 yoshdan 6 yoshgacha bo'lganlar guruhi;
- 4) 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lganlar guruhi.

E'tibor berilsa, yosh xususiyatiga ko'ra amalgacha oshiriladigan maktabgacha ta'lim o'ziga xos shaklda amalgacha oshiriladi. Ayni paytda mashg'ulotlar ilmiy asoslangan quyidagi fanlar bo'yicha dastlabki bosqichda amalgacha oshiriladi:

- 1) "Atrofdaqi olam bilan tanishtirish";
- 2) "Tabiat bilan tanishtirish";
- 3) "Badiiy nulg'ni rivojlantirish";
- 4) "Nutqni rivojlantirish";
- 5) "Sensor tarbiya";
- 6) "Elementar matematika";
- 7) "Rasm chizish";
- 8) "Applikatsiya" (ko'niktirish);
- 9) "Konstruksiyalar tuzish";
- 10) "Plastilin va loydan yasash";
- 11) "Jismoniy tarbiya";
- 12) "Musiq".

Bu o'quv fanlari keng qamrovli bo'lsa-da, lekin ular quyidagi shakllarda o'qitiladi:

- o'yin shakllarida;

- ekskursiya shaklida;
- tushuntirish shaklida.

Sinf mashg'ulotlari nihoyatda cheklangan bo'lib, asosiy e'tibor amaliy mashg'ulot shakllariga qaratilgan. Nazariy bilimlar asoslari o'qitishning o'yin-viktorina shaklida amalgacha oshiriladi.

Diqqat qilinsa, maktabgacha ta'limda 3-6 yoshli bolalarga ta'lim berish ilmiy va amaliy xususiyatlarga ega bo'lgan bo'lib, shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida turli mutaxassislikka ega pedagog xodimlar faoliyat yuritadi. Bu masala maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Bolalarni o'qish, yozish, sanog va chizishga ko'niktirish. "Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasini"ga asosan maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining quyidagilar bo'yicha ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish amalgacha oshiriladi:

1. *O'qish.* Buning uchun bolalarga "Savodxonlikka o'rgatish" kursi bo'yicha dastlabki tarzda alifbo sabog'i beriladi. Umuman, 3-6 yoshli tarbiyalanuvchilar lotin yozuvdagi o'zbek alifbosini o'zlashtiradi.

2. *Yozish.* Bu ko'nikma bolalarda "Applikatsiya" kursi vositasida shakllantiriladi. Unga ko'ra, bolalar o'z ismi-sharif, ota-onasi va yashash manzili yozma tarzda ifodalay olishi kerak.

3. *Sanog.* Mazkur ko'nikma maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga "Elementar matematika" kursi vositasida shakllantiriladi. Unga ko'ra, bolalar 1 dan 100 ga qadar sanashni bilishi, qo'shish va ayirish amallarini ajrata bilishi va ko'cha belgilaridagi raqamlarni tushunishi kerak.

4. *Chizish.* Mazkur ko'nikma maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida "Rasm chizish" hamda "Plastilin va loydan yasash" kurslari vositasida shakllantiriladi. Unga ko'ra, bolalar o'z fantaziyasidagi tasavvurlarini elementar tarzda chizish ko'nikmasini egallashi kerak. Misol uchun, ular hech bo'lmaganda oila a'zolarining sanog'ini chizib ko'rsata olishi kerak.

Diqqat qilinsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni o'qish, yozish, sanog va chizish, ya'ni umumiy savodxonlikning dastlabki bosqichi amalgacha oshiriladi.

Kezi kelganda ikki masalani ta'kidlash lozim: *birinchi*, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar bilim olamiga ilk bor olib kiriladi va shu

sababli maktabgacha ta'limga bolalarni qamrab olish darajasini keskin oshirish dolzarb bo'lib turibdi; *ikkinchisi*, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari ham ana shu tarzda tarbiyalanuvchilarni bilim olamiga olib kiradi va bunda ta'kidlangan Davlat standartlari hamda o'quv Rejasiga amal qiladi. Shu sababli ota-onalar imkon qadar o'z farzandlarini maktabgacha ta'lim muassasalariga tarbiyalanishini amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolalarni maktabga tayyorlash asoslari. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuniga binoan 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar maktabga tayyorlov guruhi hisoblanadi (34-modd). Buning ma'nosi quyidagicha:

1) 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar yozish, o'qish, hisoblash va chizishni bilishi kerak;

2) bu yoshdagi bolalarda bilim olish ko'nikmasi shakllangan bo'lishi lozim;

3) mazkur yoshdagi bolalar mashg'ulotlar va tadbirlar jarayonida faol ishtirok etishga odatlanishi shart.

Shu sababli bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta'lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur tayyorlov "Maktabgacha ta'limning namunaviy o'quv rejasini" asosida quyidagi faoliyat turlariga binoan amalga oshiriladi:

- bolalarni erkin va mustaqil faoliyatga ko'niktirish;
- o'yin faoliyati vositasida bolalarni biluv ko'nikmasini shakllantirish;
- tasviriyl san'at faoliyati vositasida bolalarning chizish va tasvirlash ko'nikmasini rivojlantirish;
- atrofidagi olamni anglash faoliyati vositasida bolalarning tushuncha va fikrlarini rivojlantirish;
- matematik faoliyat vositasida bolalarning mustaqil hisoblash va sanoqlarni amalga oshirish ko'nikmasini shakllantirish;
- musiqa faoliyati vositasida bolalarning estetik ongini shakllantirish;
- jismoniy madaniyat faoliyati vositasida bolalarning qo'lli, oyog'i, ko'zi va xatti-harakatlarini kutilgan darajada shakllantirish;
- nutqni rivojlantirish faoliyati natijasida bolalarning o'z fikrini ifodalay olish va tushunganlarini tushuntira olish ko'nikmasini tarkib topirish;

- savodxonlikka o'rgatish vositasida bolalarning o'quv tushunish, fikrini ifodalash va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini tarkib topirish.

E'tibor berilsa, maktabga tayyorlov kurslari bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyor shaxs sifatida taqdim qiladi. Buning natijasida bolalar boshlang'ich ta'limning 1-sinfidayoq to'laqonli o'quvchi sifatida faoliyat boshlaydi.

Maktabga tayyorlash kurslari maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar uchun ham majburiy bo'lib, bu ish joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan tezkor guruhlar tuzish vositasida amalga oshiriladi. Bunda ota-onalar farzandlarining 6 yoshga to'lganlaridan so'ng o'zlari tamlagan maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov kurslariga taqdim etiladi. Shu sababli keyingi paytlarda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarning miqdorini kamaytirish bo'yicha izchil tadbirlar amalga oshirilmogda.

Maktabgacha ta'limning bunday xususiyatlari oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi va ular kasbiy kompetensiya shaklini olishi kerak. Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy til bo'yicha mutaxassis-pedagoglar tili o'rgatishda o'ziga xos metodlarga ega bo'lgani holda, bolalar ta'limi va tarbiyasi bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Bunday kompetensiyalarni mazkur o'quv fani vositasida o'zlashtirish imkoniyatlari mavjudligini eslatib o'tish joiz. Negaki, Bolalar pedagogikasi o'quv fani yangi fan bo'lgani holda, ta'lim va tarbiya jarayonini faqat innovatsion yondashuvlar vositasida amalga oshiradi.

Shunday qilib, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim xususiyatlari milliy tajribalar va xalqaro dastur talablari asosida mutlaqo yangi yondashuvlar asosida tarkib topirilgan. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining mamlakatimiz maktabgacha ta'lim xususiyatlarini chuqur o'zlashtirishi ularning kasbiy tayyorgarlik ko'lamiga kirishini eslatib o'tish joiz.

Amaliy mashg'ulot

Seminar shaklida o'kaziladigan amaliy mashg'ulot an'anaviy yoki masofaviy ta'lim shaklida quyidagi masalalarni muhokama qilish bilan amalga oshiriladi:

1. Maktabgacha ta'limda 3-6 yoshli bolalarga ta'lim berish mazmuni bo'yicha qanday tushunchaga egaiz va bu borada bilganlaringizni tushuntirib bering.
2. Bolalarni o'qish, yozish, sanoq va chizishga ko'niktirish masalalari bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ishlarni ifodalang.
3. Bolalarni maktabga tayyorlash asoslarini nimalar tashkil etadi va bu boradagi maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyatini izohlang.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Maktabgacha ta'limda 3-6 yoshli bolalarga ta'lim berish mazmuni masalasi bo'yicha konspekt tayyorlang.
2. Bolalarni o'qish, yozish, sanoq va chizishga ko'niktirish masalalari mavzusida referat yozing.
3. Bolalarni maktabga tayyorlash asoslarini o'zlashtirish va mazkur masalaga doir fikrlaringizni yozing.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. // www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. // www.lex.uz.
3. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – T.: "O'qituvchi". 1991.

4-mavzu: Boshlang'ich ta'lim asoslari

Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish xususiyatlari.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyasini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: boshlang'ich ta'lim, o'quvchilar, bilim, xususiyat, o'zlashtirish, shakllantirish, ko'nikma, layoqat, kompetensiya.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida boshlang'ich ta'lim o'rta umumiy ta'limning asosiy va dastlabki bosqichi sifatida belgilangan. Qonunda boshlang'ich ta'lim mazmuni quyidagicha aks etgan:

- umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi;

- boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan (9-modd).

Qonunning mazkur moddalarini quyidagicha tushunish lozim va ular boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish xususiyatlarini ifodalaydi:

1. Boshlang'ich sinflarga bolalar 6 yoshdan 7 yoshga qadam qo'yganlarida qabul qilinadi. Bunda bolaning 6 yoshga to'liq to'lganligi hisobga olinadi. Ko'p hollarda bolaning 7 yoshga to'lishi kutiladi, biroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan bolalar 6-7 yosh oralig'ida birinchi sinfga qabul qilinadi va ular maktabgacha ta'lim muassasasida maktabga tayyorlov kursidan o'tgan bo'lishi shart.

2. Boshlang'ich ta'lim oluvchilarni yuqorida ta'kidlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-sonli Farmoniga binoan quyidagi ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlash lozim bo'lad:

- umumiy o'qitish davom ettirish;
- Prezident maktablari o'qishni davom ettirish;
- ixtisoslashgan maktablarda o'qishni davom ettirish.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini mazkur ta'lim bosqichlariga tayyorlash birinchi sinf davridayoq boshlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) o'quvchilarning bilim olish, unga qiziqish va ularni o'zlashtirishi bilan savodxonlik darajasini kengaytirish;
- 2) o'quvchilarni gumanitar, aniq va tabiiy fanlar olamiga olib kirish;
- 3) o'quvchilarda mazkur fanlar bo'yicha qiziqish, xohish va intilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- 4) o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirish.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berishning asosiy xususiyatlarini ifodalaydi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilari hamkorlik va o'zaro yordam asosida fanlarning uzviy va bog'liqlikda o'qitilishini amalga oshirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish tushunchasi mazmunini "tushunish va o'rganish orqali bilim handa axborotning mazmun-mohiyati, undan foydalanish yoki harakatlarni bajarish tartibi to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lish jarayoni" tashkil etadi.⁵

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini aniqlashda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- 1) *bilim darajasi* – bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining har bir fandani olgan ma'lumotlari ko'lamiga e'tibor beriladi;
 - 2) *ko'nikma darajasi* – bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va tabiiy olishga odatlanishi ko'lamini nazarda tutiladi;
 - 3) *malaka darajasi* – bilim va tabiiy bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z o'zlashtirganlarini ifodalay olish darajasi ko'zda tutiladi.
- Mazkur mezonlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish kerak bo'ladi. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi quyidagi mezonlar asosida belgilanadi:

- o'quvchilarning o'zlarini tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini to'g'ri takrorlashi;
- o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda qo'llay olishi;

- o'quvchilarning o'z bilganlarini tahlil qilish, qiyoslash va xulosa chiqara olishi.

Ana shu mezonlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirganlik darajasi aniqlanadi. Buning uchun o'qituvchi turli yondashuvlar, metodlar va texnologiyalar asosida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini shakllantirib boradi. Misol uchun, O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimida Insho va Bayon yozish milliy tajribasi mavjud. Bu an'anaviy tajribaga keyingi paytlarda kam e'tibor berilmogda. Vaholanki, Insho va Bayon yozish ijodiy ish turi bo'lib, unda o'quvchining bilim, ko'nikma va malaka darajalari to'liq o'z aksini topadi. Shu sababli yillar tajribasidan o'tgan bunday metodlardan zamonaviy darajada foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish va kuzatib borishda zamonaviy Test texnologiyasi ham muhim o'rin tutadi. Ayni paytda, Test texnologiyasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini aniqlash cheklangan. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajasini aniqlashga mo'ljallangan Test savollarida ko'proq ochiq savollarning (51-55 foiz) bo'lishi kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyasini rivojlantirish. *Kompetensiya* – bu muayyan voqelik yoki hodisa to'g'risidagi o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakani amaliyotda qo'llay olish layoqatidir. *Layoqat* – bu qobiliyat tarqiyotining dastlabki sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining sezgi organlari va harakatlarning funksional xususiyatlaridir.⁶ Layoqat tug'ma bo'lishi va u tabiiy muhit handa ta'lim-tarbiya vositasida rivojlantirilishi Pedagogika fanida e'tirof etilgan. Misol uchun, Abu Ali ibn Sino (XI asr) 5 yoshida Qur'oni karimni yod olgan, XX asr mutafakkirlari amerikalik Mayk Grost 11 yoshida AQShning Michigan universitetiga qabul qilingan, angliyalik Izabella Maybelle 4 yoshida I-sinf o'quvchisi bo'lgan.

⁵ Pedagogika fanidan izohli lug'at. J. Hasanboyev va boshq. – T., 2009. 551-bet.

⁶ Shu manba. 242-bet.

E'tibor berilsa, mazkur misollarda ko'plab mutafakkirlarning boshlang'ich ta'lim yoshida o'z tug'ma layoqatlarini namoyon qilganligi ma'lum bo'ladi. Shu sababi boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarning sezgi tuyg'ularini rivojlantirib borish;
- o'quvchilarning idrok tuyg'usini rivojlantirib borish;
- o'quvchilarning xotira tuyg'usini rivojlantirib borish.

Aynan Sezgi, Idrok va Xotirani to'g'ri rivojlantirib borish boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyasini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarni erkinlikka o'rgatish, hur fikr yuritishga ko'niktirish va ularga o'z fikrlarini erkin ifoda etishga imkoniyat berish layoqat kompetensiyasini rivojlantirish omillaridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyalarini rivojlantirishda o'quvchilar, psixolog va mutaxassislarining o'zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bunda ota-onalar yoki bolaning qonuniy vakillari yordamchi-ijrochi vazifasini bajaradi.

Pedagogika tajribasida har bir bolaning tug'ma iste'dodga ega bo'lishi va u 7 yoshgacha rivojlanib borishi ilmiy asoslangan. Shu jihatdan Bolalar pedagogikasi o'quv fani bolalarning tug'ma iste'dodini rivojlantirish jarayonini boshlab berishni nazardan soqit qilmaslik kerak. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- har bir bolaning layoqat va iqtidor darajasini aniqlab olish;
- har bir bolaning layoqati va iqtidorini rivojlantirish uchun ular bilan individual ishlash;
- bolalardagi layoqat va iqtidorni rivojlantirish ishida tajribali pedagoglar bilan hamkorlik qilish;
- kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan bolalarning layoqat va iqtidorini rivojlantirishga erishish.

Bunday yondashuv 3-11 yoshli bolalarning tug'ma iqtidorini kutilgan darajada rivojlantirish imkonini beradi. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatadiki, mazkur yoshdagi bolalarga kitob tanlashda yordam berilsa va ular kitob o'qishga da'vat qilinsa, ular bu topshiriqni asoyydl bajarishadi. Shu ma'noda bu toifa bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bilan

ularning ta'lim va tarbiyasini kuchaytirishga erishish mumkin. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatiga ega bolalar ta'limning keyingi bosqichida ham bu ko'nikmaga amal qilishini ta'kidlash lozim.

Shunday qilib maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz til) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari boshlang'ich ta'lim asoslarini chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi masalalar bo'yicha o'quvchilar guruhlariga bo'linib trening o'tkaziladi (treningni masofaviy ta'lim shaklida kompyuter vositasida o'tkazish imkoniyatlari ham mavjud):

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish xususiyatlari.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyasini rivojlantirish.

Trening natijalari o'quvchi tomonidan baholalanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish xususiyatlarini konspekt qiling.
2. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish" mavzusida taqdimot materiali tayyorlang.
3. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyasini rivojlantirish" mavzusida Test tuzing.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Pedagogika fanidan izohli lug'at. J. Hasanboyev va boshq. – T.: "Fan va texnologiya". 2009.
2. Бурдовская Н., Пеан А. Педагогика. – СПб., 2000.

5-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni intellektual rivojlantirish

Reja:

1. Intellektual rivojlantirish mazmuni.
2. 3-11 yoshli bolalarning qiziqish, savodxonlik va fikrlash ko'nikmasini shakllantirish.
3. 3-11 yoshli bolalarni ijodkorlik va faollikka o'rgatish.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, intellektual rivojlanish, mazmun, savodxonlik, fikrlash, ijodkorlik, faollik.

Intellektual rivojlantirish mazmuni. "Intellekt" so'zi lotincha bo'lib, aql, idrok va zehn demakdir. Pedagog olimlar intellektni rivojlantirishda ong, aql, fikr, g'oya va zehn muhim o'rin tutishini ta'kidlashadi.⁷ Sharq pedagogikasida mazkur tushunchalarga Ruh ham qo'shildi.⁸ Shu ma'noda biz maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni (bundan keyin bolalar atamasini qo'llaymiz) intellektual rivojlantirish deganda quyidagilarni kutilgan darajada shakllantirishni nazarda tutamiz:

- 1) aqlni shakllantirish;
- 2) idrokni shakllantirish;
- 3) zehnni shakllantirish;
- 4) ruhni shakllantirish.

Aql – bu inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka bo'lgan munosabatini boshqarib turadigan faoliyat. Bir so'z bilan aytganda, Aql o'quvchilarning miya imkoniyatlarining kengayib borishidir. Aql faqat bilim asosida shakllantiradi hamda rivojlantiradi.

Idrok – bu insonning bilish, tushunish qobiliyati va fahm-farosatidir. O'zgaracha aytganda, idrok tasavvurning hosilasi bo'lib, u fahm-farosat (tez ilg'ash) vositasida rivojlanadi. Idrokni rivojlantirish tasavvur va xotirani shakllantirish bilan amalga oshadi.

Zehn – bu muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan oqibga qiziqish, moyillik va intilishlar majmuidir. Bir so'z bilan aytganda, Zehn insonning o'zligini anglashga va olamni bilishga bo'lgan qiziqishlari to'planidir.

Ruh – insonning qalbidagi mehr, muhabbat va munosabat tuyg'ulari majmuidir. Ruh Aqlga nisbatan keng imkoniyatlarga ega bo'lib, u mantiqsiz hodisalarni ham qabul qiladi va Aql esa faqat mantiqli hodisalarni qabul qiladi.⁹

Shaxsni rivojlantirishda uning Ongida mavjud bo'lgan ana shu Aql, idrok, Zehn va Ruh tuyg'ularini to'g'ri shakllantirish muhim o'rin tutadi. Bularning majmuidi shaxsni intellektual rivojlantirish deb ataladi. Shu jihatdan 3-11 yoshli bolalarni intellektual rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

- aqlni rivojlantirish uchun bolalarga ularning jismoniy va ruhiy xususiyatlariga mos bilimlarni oson va soddada usulda berish;
- idrokni rivojlantirish uchun bolalarning tushunish va bilish qobiliyatini dars mashg'ulotlari vositasida shakllantirib borish;
- zehnni rivojlantirish uchun bolalarning qiziqishlari va xohish-laklarini tartibga solib borish;

- ruhni rivojlantirish uchun bolalarning tuyg'ularini to'g'ri yo'naltirish va ularning fikrlarini hisobga olib borish.

Bunday yondashuv bolalarning intellekt tuyg'ularini to'g'ri rivojlantirish imkonini beradi. Buning natijasida bolalarda bilim, ta'lim va tarbiya olishga intilish ko'nikmasi tarkib topadi. O'zgaracha aytganda, bolalarning intellektual shaxs, ya'ni ziyoli odam sifatidagi qiyofasiga maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida tamol qo'yiladi.

3-11 yoshli bolalarning qiziqish, savodxonlik va fikrlash ko'nikmasini shakllantirish. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida 3-11 yoshli bolalarning qiziqish, savodxonlik va fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. *Qiziqishni shakllantirish.* 3-11 yoshli bolalarning bilim va tarbiya olishga bo'lgan qiziqishini shakllantirishda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- bolalarni erkin qo'yish;

⁷ Pedagogika fanidan izohli lug'at. J. Hasanboyev va boshq. – T., 2009. 184-bet.
⁸ G'azzoliy M. Kimyo saodat. – T.: "Kamalak". 1993.

⁹ Shu manba. 7-bet.

- bolalarning fikrlarini va munosabatlarini qabul qilish;
 - tarbiyali o'yinlar;
 - atrof-olam bilan tanishtirish.
2. *Savodxonlikni shakllantirish.* Bunda quyidagilarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:
- bilimlar majyasi bo'lgan ma'lumotlar va axborotlarni soddada usulda tushuntirish;
 - bolalarni kitob, daftar, qog'oz va qalamlar bilan ishlashga odatlantirish;
 - bolalarga muayyan bilim beruvchi multimedia mahsulotlarini taqdim qilib borish;
 - bolalarni o'z ustida ishlashga o'rgatish.
3. *Fikrlashni shakllantirish.* 3-11 yoshli bolalarda fikrlashni kutilgan darajada shakllantirish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:
- bolalarning nutqini o'stirish;
 - bolalarni o'z fikrini ifodalay olishga o'rgatish;
 - bolalarni kompyuter, mobil aloqa vositasi kabildan to'g'ri foydalanishni o'rgatish;
 - bolalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.

Bunday yonashuv 3-11 yoshli bolalarning ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish imkonini beradi.

Bolalarning qiziqishi, savodxonlik va fikrlash ko'nikmasini shakllantirishda ular bilan individual ishlash metodiga amal qilish samarali hisoblanadi. O'qituvchi tomonidan har bir bola bilan individual ishlash murakkab kechishi tabiiy, chunki bu vaqt bilan bog'liq jarayondir. Shu sababli bu borada tajribali o'qituvchilar, maktab psixologi va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, Chirchiq davlat pedagogika universitetida maktablar hamda maktabgacha ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish tajribasi mavjud. Bu tajribaga ko'ra, universitetning professor-o'qituvchilari maktablarga birlashtirilgan va ular maslahatchi, yo'naltiruvchi hamda yordam beruvchi vazifalarni bajaradi. Shu jihatdan mazkur professor-o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish natijasida bolalarning qiziqishi, savodxonlik darajasi va fikrlash ko'nikmasini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyati mavjud.

3-11 yoshli bolalarni ijodkorlik va faollikka o'rgatish. *Ijodkorlik* – bu shaxsning har qanday sharoitlarda o'ziga xos fikrlashi va yangiliklar yaratishidir. Shu jihatdan 3-11 yoshli bolalarning ijodkorligini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- bolaning layoqatini (chizish, rasm solish, tasvirlash, hisoblash, yasash) aniqlash;
- bolani o'z ustida ishlashga o'rgatish;
- bolaning ijodiy tuyg'usini rivojlantirib borish;
- bolada ijodkorligi bilan faxrlanish tuyg'usini uyg'otish.

Har bir shaxsda ijodkorlik tug'ma bo'ladi. Shu ma'noda 3-11 yoshli bolalarning ijodkorligi o'ziga xos bo'lib, bu tuyg'u ko'p hollarda sof holda ifodalanadi. Bunday fiziologik va psixologik omillardan to'g'ri foydalanish o'qituvchining funksional burchidir.

Faollik – bu shaxsda o'z kuchi bilan hal qiladigan va javob beradigan qobiliyatdir. Shu jihatdan 3-11 yoshli bolalarni faollikka o'rgatish uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bolalarni tashabbuskorlikka o'rgatish;
- bolalarning takliflari va mulohazalariga e'tibor bilan munosabada bo'lish;
- faol bolalarni namuna sifatida ko'rsatish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarning faolligiga ko'proq tayanish.

Bunday yondashuv 3-11 yoshli bolalarni faollikka o'rgatishda metodologik asoslarga ega bo'lgan ahmiyatidir.

Zero, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni intellektual rivojlantirishda ularning aql, idrok, zehn, ruhlarini rivojlantirish, bu toifa o'quvchilarning qiziqish, savodxonlik va fikrlash ko'nikmasini to'g'ri shakllantirish hamda ularni ijodkorlikka va faollikka o'rgatish muhim o'rin tutadi. Bularning barchasi quyidagilar vositasida amalga oshiriladi:

- o'quv fanlarini o'qitish jarayonida;
- tarbiyaviy tadbirlar vositasida;
- sinf va maktabdan tashqari tadbirlar asosida.

Bu borada milliy va jahon bolalar pedagogikasi tarixida o'ziga xos metodologik tavsiyalar ishlab chiqilganligi hamda tajribalar taqdim etilganligini eslatib o'tish joiz. Misol uchun, italyan pedagogi Mariya Montessori

sorining (1870-1952) pedagogik ta'limoti bu boradagi eng muhim yondashuvlardan biridir.¹⁰

Shunday qilib maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni intellektual rivojlantirish bu boradagi eng asosiy vazifalardan biridir. Mazkur masala maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan chuqur o'zlashtirilishi kerak.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi masalalar bo'yicha munozara o'tkazing:

1. Intellektual rivojlantirish mazmuni.
 2. 3-11 yoshli bolalarning qiziqish, savodxonlik va fikrlash ko'nikmasini shakllantirish.
 3. 3-11 yoshli bolalarni ijodkorlik va faollikka o'rgatish.
- Munozara yakunlari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. "Intellektual rivojlantirish mazmuni" matnini konspekt qiling.
2. "3-11 yoshli bolalarning qiziqish, savodxonlik va fikrlash ko'nikmasini shakllantirish" mavzusi bo'yicha insho yozing.
3. "3-11 yoshli bolalarni ijodkorlik va faollikka o'rgatish" mavzusi bo'yicha test tuzing.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Pedagogika fanidan izohli lug'at. J. Hasanboyev va boshq. – T.: "Fan va texnologiya". 2009.
2. Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – СПб., 2001.
3. Монтессори М. Метод научной педагогики. // История дошкольной зарубежной педагогики. Хрестоматия. – М.: "Просвещение". 1974. – С. 378-410.

2-MODUL: BOLALAR PEDAGOGIKASI DIDAKTIKASI

"Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" va uning asosiy dasturlaridan biri "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturi"da maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning bilim darajasini kuchaytirish, ularni ta'limning keyingi bosqichida bilimli shaxslar sifatida faoliyat ko'rsatishga tayyorlash vazifalari qo'yilgan. Shu jihatdan "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanining mazkur 2-modulida didaktika – bolalar pedagogikasida o'qitishning asosi sifatida, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish asoslari, texnologiyasi, shakllari hamda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash indikatorlari mavzulari tahlil etilgan. Mavzularni yoritishda so'ngi ma'lumotlar, eng yaxshi pedagogik yutuqlar va yondashuvlar hamda individual omillarga asoslanilgan.

6-mavzu: Didaktika – bolalar pedagogikasida o'qitishning asosi sifatida

Reja:

1. Didaktika tushunchasining mazmuni.
2. "Bolalar pedagogikasi"da o'qitish va o'qish kategoriyalari.
3. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tizimi.

Tayanch tushunchalar: didaktika, bolalar, tushuncha, mazmun, pedagogika, o'qish, o'qitish, kategoriya, tizim, bilim, ko'nikma.

Didaktika tushunchasining mazmuni. "Didaktika" atamasi lotincha bo'lib, o'qitish va ta'lim berish ma'natini anglatadi.¹¹ Shu jihatdan didaktika o'qitishning nazariyasi va amaliyotini o'rganadi. Bugungi kunda pedagog olimlar tomonidan didaktikaning bir necha konsepsiyalari ishlab chiqilgan. Bu konsepsiyalarning asosiy lari quyidagilardan iborat:

¹⁰ Монтессори М. Метод научной педагогики. // История дошкольной зарубежной педагогики. Хрестоматия. – М.: "Просвещение". 1974. – С. 378-410.

¹¹ Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. – СПб.: "Питер". 2001. – С. 105.

1. *Didaktik qomusiylik konsepsiyasi.* Mazkur konsepsiyaga ko'ra, shaxsga qomusiy bilimlar manbai berilishi kerak. Bu konsepsiyaning mashxur namoyondalari Ya.Komenskiy, J.Milton va I.Basedovlar hisoblanadi.

2. *Didaktik formalizm konsepsiyasi.* Bu konsepsiyaga ko'ra, shaxsga bilimlar va ko'nikmalar berish uchun uning xususiyatlariga hamda ta'lim sharoitlariga taylanish lozim. Mazkur konsepsiyaning mashhur namoyondalari I.Pestalotsi, Y.David, A.Dobrovolskiy kabilar hisoblanadi. Ularning konsepsiyalari hozirgi G'arb mamlakatlarida ko'proq amaliyotga tadbiq etilgan.

3. *Didaktik progmatik konsepsiya.* Mazkur konsepsiyaga ko'ra, o'qitish jarayonida asosiy e'tibor shaxsning o'zlashtirgan bilimi va ko'nikmasini amaliyotda qo'llay olishiga qaratiladi. Bu konsepsiyaning mashhur namoyondalari J.Dyui va G.Kershenshteyner hisoblanadi. Shu sababli mazkur konsepsiya Amerika Qo'shma Shtatlarida ustuvor darajada qabul qilingan.

4. *Funksional materializm konsepsiyasi.* Bu konsepsiyaga ko'ra, o'qitish jarayonida materializm masalalari, ya'ni aniqlik va amaliylik ilk rejada turadi. Mazkur konsepsiyaning mashhur vakili V.Okon hisoblanadi. Bu konsepsiya asosan Osiyo mamlakatlarida ustuvor darajada qabul qilingan.

E'tibor berilsa, didaktikaning o'ziga xos konsepsiyalari jahon ta'lim tizimida amal qilib kelinmoqda. Mamlakatimiz ta'lim va tarbiya tizimida esa keyingi yillarda materializm didaktikasidan pragmatizm didaktikasiga o'tish jarayoni kuzatilmogda. Unga ko'ra, shaxsga bilim, ko'nikma va malaka berish bilan uni amaliy faoliyat hamda hayotga tayyorlash asosiy masala hisoblanadi. Bundan progmatik yondashuv keyingi paytlarda boshlang'ich ta'lim bosqichiga tadbqiq etilayotganligini eslatib o'tish joiz. Unda Finlandiya Respublikasining boshlang'ich ta'lim bo'yicha tajribasi pragmatik yondashuv asosida qabul qilinayotganligi muhim yo'nalish hisoblanadi. Ayni paytda, bizning yondashuvimizga ko'ra, didaktika bo'yicha mamlakatimiz milliy tajribasi pragmatizm yondashuv bilan uyg'unlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Didaktik yondashuvlarda ta'lim oluvchilarning ma'naviy olamini talab darajasida shakllantirish muhim o'rin tutadi. Shu sababli bu borada o'qitishning turli nazariyalarga asoslanish tavsiya etib kelinmoqda. Bunday nazariyalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

A. *O'qitish jarayonida aqliy imkoniyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi.* Bu didaktik nazariyaga ko'ra, quyidagilarga asosiy e'tibor qaratiladi:

- o'quvchilar tomonidan berilgan topshiriqlarning sifati bajarilishiga e'tibor berish;

- o'quvchilarning topshiriqlarni bajarish jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

- o'quvchilarning ichki mulq ko'nikmalarini tarkib topirish;

- o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish.

Demak, ushbu didaktik nazariyada ta'lim oluvchilarning aqliy imkoniyatlarini kengaytirish vositasida ularda mustaqil fikrlash va topshiriqlarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish ilk rejada turadi.

B. *O'qitishning boshqaruv nazariyasi.* Mazkur didaktik nazariyaga ko'ra, o'qitish jarayonida o'quvchilarning quyidagi ko'nikma va malakalarini shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida qaratiladi:

- o'quvchilarda maqsad-muddaoni shakllantirish;

- o'quvchilarda ma'lumot va axborotlar bilan ishlash ko'nikmalarini tarkib topirish;

- o'quvchilarni mustaqil qaror qabul qila olishga o'rgatish;

- o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish va baholab borish.

Diqqat qilinsa, mazkur didaktik nazariyada asosiy masala o'quvchilarni mustaqil faoliyatga tayyorlashdan iborat.

Namuna sifatida keltirilgan bu didaktik nazariyalardan ma'lum bo'ladiki, o'qitishning maqsadi, vazifalari va undan kutiladigan natijalarga qarab muayyan didaktik nazariya tanlanadi. Ayni paytda, o'qitish jarayonida didaktikaning o'qish, o'qitish, tushuntirish, ko'niktirish, faoliyatga tayyorlash kabi umumiy qonuniyatlariga qat'iy amal qilinadi. Bu masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

"Bolalar pedagogikasi"da o'qitish va o'qish kategoriyalari. Bu yangi o'quv fani 3-11 yoshli bolalarni o'qitishga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan bu faning o'qitish va o'qish kategoriyalari o'ziga xos tarzda idrok etilishi va ularning samaradorligiga erishish

mo'ljallanishi kerak. Bizning yondashuvimizga ko'ra, 3-11 yoshli bolalarni o'qitish kategoriyalarida quyidagilar muhim o'rin tutadi:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning alifbo bo'yicha savodxonligini chiqarish, ularni hisob va sanogga o'rgatish, chizish ko'nikmasini shakllantirish vositasida ularni maktab ta'limiga tayyorlash;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning dastlabki tarzda o'qish, yozish, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini tarkib topitirish;

- boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'qib tushunish, o'z fikrini og'zaki va yozma ifodalay olish, aniq, tabiiy hamda gumaniar fanlarning dastlabki bosqichlari bilan tanishtirish asosida ularning savodxonlik ko'nikmalarini talab darajasida rivojlantirish;

- boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning iqtidorini aniqlash va ularni rivojlantirish asosida bolalarni ta'limning keyingi bosqichlariga munosib tayyorlash.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qitish kategoriyasining mazkur qat'iy qonuniyatlari hamda vazifalari O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, davlat ta'lim standartlari va malaka talablari asosida belgilanadi. Shu sababli "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanida o'qitish kategoriyasi butunlay yangicha yondashuvlarga asoslanadi. Albatta, bu o'rinda quyidagi umumiy talablar ham hisobga olinadi:

- o'qitish jarayonini 3-11 yoshli bolalarning aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik imkoniyatlari hamda yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etish;
- mazkur toifadagi bolalarning dinamik tarzda jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan rivojlanib borishini hisobga olgan holda o'qitishni amalga oshirish;
- bu toifa bolalarning savodxonlik darajasi, fikrlash ko'nikmasi va mustaqil harakat qilish malakalarini talab darajasida tarkib topitirish.

Diqqat qilinsa, 3-11 yoshli bolalarni o'qitish kategoriyasi o'ziga xos vazifalar, xususiyatlar va yondashuvlarga ega.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanidan o'qitish kategoriyasining nazariy, metodologik va texnologik asoslarini yaratish jarayoni kechmoqda. Shu sababli mazkur masalada quyidagi tayanch haqiqatga asoslanish kerak: 3-11 yoshli bolalarni o'qitish jarayoni mantiqiy bog'liqlikda va uzviylikda amalga oshirilishi lozim. Chunki bugungi kunga qadar maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshirilgan o'qitish jarayoni

nisbatan yengillic xususiyatlariga ega edi, hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida 3-6 yoshli bolalar vaqtlarining ko'p qismini ta'lim olish bilan o'tkazadi. Shu sababli 3-6 yoshli bolalarni o'qitish asoslari 7-11 yoshli bolalarni o'qitish asoslari bilan bog'liqlikda bo'lishi kerak. Bunday yangicha yondashuv metodologik jihatdan asoslanishi taqozo etiladi. Mazkur masalada bizningcha, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining o'zaro integratsiyasiga erishish kutilgan samarani beradi. Bularning barchasi oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan bo'lajak o'qituvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi kerak bo'ladi.

"Bolalar pedagogikasi" yangi o'quv fanida o'qitish kategoriyasi ham butunlay yangi mazmunga ega bo'ladi. Aslida, o'qish – bu ta'lim oluvchilar tomonidan yangi ma'lumot, axborot va bilimlar manbaini o'zlashtirishdir. Shu sababli 3-11 yoshli bolalarning o'qishi butunlay yangi asoslarda tashkil etilishi kerak.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qishning o'yin turi ustuvor darajada qaratiladi. Bu to'g'ri bo'lib, 3-6 yoshli bolalarning rivojlanish xususiyatlari shuni taqozo etadi. Ayni paytda, bugungi islohotlar jarayonida maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan o'qitish jarayonining yangi metodlarini, vositalarini va texnologiyalarini topish taqozo etiladi.

Bugungi boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qishning turli metodlari, vositalari va texnologiyalari qo'llanilayotgani ma'lum. Bundan asosiy maqsad 7-11 yoshli o'quvchilarning savodxonlik darajasini hozirgi zamon xalqaro ta'lim dasturlari qoidalariga asosan yuksaltirishdir. Ayni paytda, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qishning o'ziga xos yo'nalishlarini kashf etish dolzarb bo'lib turibdi.

Mazkur masalalar bo'yicha, bizning yondashuvimiz quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qishning dars, mustaqil ta'lim va to'g'arak kabi shakllarini mazkur ta'lim bosqichiga mos ravishda tashkil etish;

- boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qishning chuqurlashtirilgan shakllarini keng joriy etish va o'quvchilarning mustaqil o'zlashtirishini yo'lga qo'yish;

- maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'zaro uyg'unlikda ta'lim-tarbiya olishiga erishish.

Bularning barchasi maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qish jarayonini tashkil etishda yangi nazariyalar va metodologiyalarga asoslanishni taqozo etadi.

3-11 yoshli bolalarni o'qitish tizimi. "Bolalar pedagogikasi"da maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish tizimini mazkur ta'lim bosqichlarining davlat ta'lim standartlari, makala talablari hamda o'quv dasturlari asosida tashkil etiladi. Bu tizimni tashkil etishda imkon qadar yangi yondashuvlarga asoslanish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor bering:

1) maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish tizimini tashkil etish:

a) 3 yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilarni o'qishga tayyorlash: bunda bolalar o'yinlari vositasida mazkur yoshdagi tarbiyalanuvchilar ilk marotaba qog'oz bilan ishlash, oddiy tasvirlarni chizish va qo'llarni mashq qildirish asosida o'qish jarayoniga tayyorlab boriladi;

b) 3-6 yoshli tarbiyalanuvchilarni maktabga tayyorlash: bunda bolalarga alifbe o'rgatiladi, ularning yozuv ko'nikmasi shakllantiriladi, bo'g'inlab o'qishga ko'niktiriladi, 100 gacha bo'lgan sanoq o'rgatiladi, o'zlarining ism-shariflarini to'liq yozish va uy manzillarini tushunarli ifodalab berish ko'nikmalari beriladi. Shuningdek, bu bosqichdagi tizimda maktabgacha ta'lim muassasalari bilan vaqinchqa qamrab olinmagan qishloq hududlarida 6 yoshda bolalar maxsus maktabga tayyorlanadi. Shu jihatdan maktabgacha ta'limda amalga oshiriladigan o'qitish tizimining bu ikkinchi bosqichi muhim xususiyatlarga ega. Bo'lajak maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi o'quvchilari mazkur masalaga alohida e'tibor berishi va maktabgacha ta'lim muassasasida o'qitish tizimi butunlay yangi tamoyillarga tayanishini o'zlashtirish taqozo etiladi.

2) Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini o'qitish tizimi:

a) mazkur o'quvchilar 1-2-sinfarda fanlar olamiga olib kiriladi, ularning bilim olish ko'nikmasi shakllantiriladi, til o'rganish malakasi kuchaytiriladi va o'z fikrini ifodalash ko'nikmasi shakllantiriladi;

b) bu toifa o'quvchilar 3-4-sinfarda ta'limning keyingi bosqichi davom ettiriladigan o'quv fanlarining asoslari bilan dastlabki bosqichda o'qitiladi,

ular ta'limning keyingi bosqichlariga tayyorlab boriladi va o'quvchilarning muayyan fanlar bo'yicha layoqati aniqlanib, ular rivojlantiriladi.

E'tibor berilsa, 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tizimi o'zaro uyg'un tamoyillarga asoslanadi va funksional jihatdan farqlanadi. Shu sababli mazkur yoshdagi bolalarni o'qitish tizimini samarali tashkil etish uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 3-11 yoshli bolalarga o'qitiladigan o'quv fanlarining asoslari va tarbiya jarayonining o'zaro mantiqli asosda tashkil qilinishi;

- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida amalga oshiriladigan bilim berish, ko'nikmani shakllantirish va layoqatni rivojlantirish ishlari dinamik ravishda rivojlantirib borilishiga e'tibor berish;

- imkon qadar maktabgacha va boshlang'ich ta'lim pedagoglarining o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishiga erishish.

Bularning barchasi 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tizimining o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, didaktika – bolalar pedagogikasida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va yondashuvlarga binoan mazkur jarayonning negizi hisoblanadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida faoliyat olib boradigan Chet tillar fanlari o'quvchilari ta'kidlangan tavsiyalarga asosan "Bolalar pedagogikasi didaktikasi" masalasida chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashi taqozo etiladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi masalalar bo'yicha bahs o'tkazing:

1. *Didaktika* tushunchasining mazmuni.

2. "Bolalar pedagogikasi"da o'qitish va o'qish kategoriyalari.

3. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tizimi.

Munozara yakunlari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. *Didaktika* tushunchasining mazmunini o'zlashtiring.

2. "Bolalar pedagogikasi"da o'qitish va o'qish kategoriyalari to'g'risidagi taqdim qilingan matnni konspekt qiling.

3. Taqdim etilgan matn asosida 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tizimi bo'yicha Test tuzing.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Pedagogika fanidan izohli lug'at. J.Hasanboyev va boshq. – T.: "Fan va texnologiya". 2009.
2. Борова Н.В., Рен А.А. Педагогика. – СПб.: "Питер". 2001.
3. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika. – T., 2021.
4. Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Darslik. – Toshkent, 2021.

7-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish asoslari

Reja:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish qonuniyatlar.
2. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tamoyillari.
3. 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning didaktik vositalari.

Tayanch tushunchalar: ta'lim, tarbiya, bilim, maktabgacha o'qitish, asos, bolalar, tamoyillar, didaktika.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish qonuniyatlar. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish qonuniyatlar pedagogik qoidalar, talablar va tavsiyalarni mujassam etadi. Bu o'rinda *qonuniyat* deganda pedagogik ilmiy-tadqiqotlar va o'qitishning uzoq yillik tajribalari asosida yuzaga kelgan talablarga itoat etish nazarda tutiladi. Pedagogik qonuniyatlar, ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish jarayonida o'quv-tarbiyaviy yondashuvlarni tartibga soladi va ularning samaradorligi uchun asos bo'ladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish qonuniyatlar orasida quyidagilar muhim ahamiyatga ega.

1. *Bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish.* 3-11 yoshli bolalar ruhiy jihatdan dinamik rivojlanish jarayonida bo'lgani uchun ularning psixologik xususiyatlari o'ziga xos bo'ladi. Bunday xususiyatlarning asosiy sifatlari quyidagilardan iborat:

- bolalarning ruhiy jihatdan turli kayfiyatlarda bo'lishi;
- bolalarning ruhiyatida ta'lim jarayonida turli o'zgarishlarning mavjud bo'lib turishi;
- bolalar ruhiyatidagi tez unutuvcchanlik xususiyatlarining ustuvor bo'lishi.

Bularni hisobga olgan holda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish jarayoni amalga oshiriladi.

2. *Pedagogik talablarga amal qilish.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish jarayonida pedagogik talablarga qat'iy amal qilish taqozo etiladi. Chunki bunday talablarga rioya qilish ushbu toifa bolalarning savodxonlik darajasini tarkib topirish va ularni bilim olamiga olib kirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday pedagogik talablarning asosiy sifatlari quyidagilardan iborat:

- o'qish jarayonini bolalarning imkoniyatlariga qarab tashkil etish va ularning xususiyatlariga mos usullar hamda texnologiyalarni tanlash;
- o'qitish jarayonida bolalarning faolligini tarkib topirish va ularning o'zlashtirish jarayonini muntazam nazorat qilib borish;
- o'qishni kutilgan darajada o'zlashtirayotgan o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholab borish.

3. *Pedagogik tajribalarga asoslanish.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish jarayonida eng muhim qonuniyatlardan biri bu pedagogik tajribalarni hisobga olishdir. Chunki pedagogik tajribalar quyidagilar bo'yicha tayanch hisoblanadi:

- o'qitish jarayonida har bir o'quvchining imkoniyatlarini va layoqatlarini hisobga olish;
- o'qitish jarayonida eng maqbul pedagogik tajribalarni tanlab, ularga asoslanish;
- o'qitish jarayonida asosiy maqsad sifatida samaradorlikni belgilash.

Bularning barchasi maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishda eng muhim qonuniyatlarni hisoblanadi. Shu sababli ularni oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish taqozo etiladi.

3-11 yoshli bolalarni o'qitish tamoyillari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishda eng asosiy tamoyillarga tayanish taqozo etiladi. Chunki bu yoshdagi ta'lim oluvchilar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi uchun mazkur masalaga alohida e'tibor berilishi kerak. Bu o'rinda 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning quyidagi asosiy tamoyillari tahliliga e'tiboringizni tortamiz:

1. *Tushunarlik tamoyili.* Mazkur toifa ta'lim oluvchilari o'qitish jarayonida har bir tushunchalarni, bilim asoslarini va ko'nikma omillarini o'z vaqtida tushunib, o'zlashtirishi kerak. Buning uchun o'qituvchi tomonidan quyidagilarga amal qilish taqozo etiladi:

- o'qituvchining nutqi barcha pedagogik, filologik va estetik talablarga javob berishi;

- o'qituvchi tomonidan har bir so'z, ibora va birlikmalarining tushunarliligi hamda jarangdor holda ifodalanishi;

- o'qituvchining nutqida bolaga nisbatan hurmat hissining mavjud bo'lishi.

2. *Ko'rgazmalilik tamoyili.* Bu tamoyilga ko'ra, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida har bir o'qitish jarayoni bir-birini to'ldiradigan ko'rgazmalilikka asoslanishi kerak. Shu sababli mazkur masalada o'qituvchi tomonidan quyidagilarga amal qilish muhim hisoblanadi:

- 3-11 yoshli bolalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'qitish jihozlari tayyorlanishi va ularning oddiylikdan murakkablikka qoidasiga amal qilgan holda ifodalashi;

- mazkur toifa bolalarning jismoniy rivojlanishini hisobga olib, tayyorlangan ko'rgazmali jihozlarga ularning xususiyatlariga mos ravishda ranglar hamda dizayn vositalarini tanlash;

- ko'rgazmali vositalarni tanlashda ushbu toifa bolalarni qiziqitiruvchi va harakatlantiruvchi jihatlarga e'tibor berish.

3. *Yo'naltirish tamoyili.* Mazkur tamoyilga ko'ra, 3-11 yoshli bolalar bilim olishga, axloqiy fazilatlarini o'zlashtirishga va faol bo'lishga yo'naltirilishi lozim bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi tomonidan quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- 3-11 yoshli bolalarning qiziqishi, layoqati va harakatlarni o'rganib, ularni shu asosda bilim, fazilatlar va faollikka yo'naltirish;

- bolalarning layoqatini rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda ularni individual mashqlar va topshiriqlar berib borish;

- layoqati aniqlangan bolalarni bilim va turli sohalarining asoslariga yo'naltirish, bu borada dastlabki tushunchalarni berish hamda ularning fikrlarini hisobga olgan holda tatbiqlash.

4. *Samaradorlik tamoyili.* Ushbu tamoyilga ko'ra, 3-11 yoshli bolalarni o'qitishda asosiy masala samara hisoblanadi. Bunday samara quyidagilarga asosan aniqlanadi:

- 3-11 yoshli bolalarning o'quv fanlari bo'yicha mavzularni kutilgan darajada o'zlashtirganligi;

- mazkur yoshdagi bolalarda eng asosiy axloqiy fazilatlarining shakllanganligi;

- bu toifa bolalarda jittimoiy faollikning tarkib topganligi.

Bunday yondashuv maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishning eng muhim tamoyillariga amal qilishni tarkib topitiradi.

Umuman, 3-11 yoshli bolalarni o'qitishda imkon qadar samarali va yangi tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3-11 yoshli bolalarni o'qitishning didaktik vositalari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishning bir qator didaktik vositalari mavjud. Bu o'rinda ularning eng muhimlariga diqqatingizni tortamiz.

1. *Maqbul usulga tayinish.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishda eng maqbul usullarga tayanish taqozo etiladi. Bunday usullarning nisbatan samaradorlari quyidagilardan iborat:

- reproduktiv usul, bu usulga ko'ra ta'lim oluvchilarga bilimlarning keng ko'lami o'qitiladi va buning natijasida ta'lim oluvchilar keng bilimlarga ega bo'ladi;

- ijodiy usul, mazkur usulga ko'ra ta'lim oluvchilarga bilim berishda ijodkorlikka tayaniladi va unda 3-11 yoshli bolalarning ijodiy fikrlashi, ijodiy yondashishi hamda biron narsani kashf etishiga erishiladi;

- hissiy-qadriyatli usul, ushbu usulga ko'ra ta'lim oluvchilarda hissiy munosabatlarni uyg'otish bilan ularning bilim olishi va tatbiqlanishi amalga oshiriladi. Chunki hissiy munosabat ta'lim oluvchilarning o'zligidagi noyob bilish hisslarini namoyon qiladi.

2. *Maqbul shaklga asoslanish.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida o'qitishning shakllari muhim o'rin tutadi. Buning uchun eng maqbul, qulay va samarali shakllarga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan quyidagi maqbul shakllarga e'tibor bering:

- 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning dars shakli, bu shaklda an'anaviy va noan'anaviy mashg'ulotlardan foydalanish tavsiya etiladi. Misol uchun, maktabgacha ta'limda ko'p hollarda darsning o'yin shaklidan foydalaniladi, shu bilan bir qatorda viktorina, bilimlar musobaqasi, zukolar o'yini kabi noan'anaviy mashg'ulotlardan foydalanish samarali hisoblanadi;

- mazkur toifadagi bolalarni o'qitishda ko'p hollarda sinfdan tashqari mashg'ulotlar shakli amaliy samara beradi. Chunki sinfdan tashqari mashg'ulotlar bolalarda qiziqish, harakatlanish va o'zlaridagi imkoniyatlarni namoyon qilishni yuzaga keltiradi;

- texnologiyali dars shakli, bu shaklda mobil aloqa vositasi, kompyuter, televizor kabi texnik imkoniyatlardan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tiladi. Bu o'qitish shakli ayniqsa, murakkab sharoitlarda juda samarali hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning texnologik dars shakli chuqur o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

3. *Klaster shakli.* Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagoglari tomonidan o'qitishning innovatsion ko'rinishlaridan biri klaster shakli ishlab chiqilgan. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish jarayonida bu shakldan ham foydalanish kutilgan samarani beradi. Buning uchun o'qituvchi tomonidan quyidagilarga amal qilinishi kerak:

- muayyan muhim mavzularni mutaxassislar ishtiroki va yordamida o'qitish, shu mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirishga erishish;

- "maktab-laboratoriya" kabi innovatsion o'quv muassasalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish;

- tajribali pedagoglar ishtirokida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini oshirib borish.

E'tibor berilsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish asoslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ajralib turadi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabarlari oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur asoslarni chuqur o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi masalalar bo'yicha onlayn va oflayn tarzda trening o'tkazing:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish qonuniylari.

2. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tamoyillari.

3. 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning didaktik vositalari.

Trening yakunlari o'qituvchi tomonidan baholalanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish qonuniylari"ni konspekt qiling.

2. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tamoyillari mazmunini o'zlashtiring.

3. 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning didaktik vositalari bo'yicha ehtiyojli-ko'rgazmali o'quv jihozi tayyorlang.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. История зарубежное дошкольное педагогика. Хрестоматия. – М., 1974.

2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T., 2009.

3. Mavlonova R. Umumiy pedagogika. – T., 2017.

4. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. Monografiya. – T., 2022.

8-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish texnologiyalari

Reja:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish metodlari.

2. 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari.

3. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish texnologiyalariga qo'yiladigan pedagogik va psixologik talablar.

Tayanch tushunchalar: didaktika, maktab, boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim, o'qitish, asos, yondashuv, innovatsiya, bilim, ko'nikma.

Jamiyatimizning hozirgi innovatsion rivojlanish sharoiti muayyan ijtimoiy murakkabliklarni bartaraf etish jarayoni bilan bog'liqlikda kechmoqda. Jumladan, maktabgacha va boshlang'ich ta'limni amalga oshirishda ijtimoiy murakkabliklar keyingi paytlarda yuzaga kelayotganligi hamda ularni bartaraf etish uchun ilmiy va amaliyotchi pedagog kadrlarning hamkorlikdagi faoliyati samarali bo'lmog'ida. Murakkab pandemiya sharoiti kabi omillar maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonini amalga oshirishda yangi texnologiyalarni tekcor o'zlashtirish hamda amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu sababli maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bo'yicha pedagog kadrlar mazkur jarayonga oid eng so'nggi texnologiyalarni muntazam o'zlashtirib borishi zaruriyat hisoblanadi. Misol uchun, keyingi paytlarda mustaqil ta'lim texnologiyasi kabi o'qitishning zamonaviy shakllari imkoniyatlardan keng foydalanish taqozo etilmoqda. Mustaqil ta'lim texnologiyasi keng imkoniyatlarga ega bo'lgani holda, ijtimoiy murakkab sharoitlarda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarga kutilgan darajada bilim berish bo'yicha muayyan kasbiy tayyor-garlikni taqozo etadi. Chunki bu hol maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning jismoniy, aqliy, ruhiy hamda estetik xususiyatlariga bog'liq bo'lgan omildir. Shu jihatdan bo'lajak o'qituvchilarning yangi asoslardagi texnologiyalarni muntazam o'zlashtirib borishi taqozo etiladi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shunday texnologiyalardan eng asosiy-lari tahliliga tortamiz.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish metodlari.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish bo'yicha o'ziga xos, eng asosiy, qulay va oson metodlar tanlanishi kerak. Buning uchun albatta, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning yosh, jismoniy, aqliy, ruhiy hamda estetik jihatdan rivojlanib borishi hisobga olinadi. Shuningdek, metodlarni tanlashda "oddiydan murakkablikka" tamoyilga, ya'ni metodlarning oddiydan murakkablikka tomon rivojlanib borishiga amal qilish kutilgan samarani beradi. Ayni paytda, "Bolalar pedagogikasi" yangi

o'quv fanida bizning yondashuvimizga ko'ra, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarga tanlanadigan o'qitish metodlari *umumiy xususiyatlarga* ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan quyidagilarni o'zlashtirish kutilgan samarani beradi:

1) birinchi guruh metodlari – bunday metodlarga bilim berish va uni o'zlashtirish metodlari kiradi (ko'p hollarda bu metodlarni og'zaki metodlar deb atash mumkin), ya'ni: suhbat, hikoya, munozara, matn bilan ishlash va h.k.;

2) ikkinchi guruh metodlari – mazkur metodlarga o'qitish amaliyotiga doir metodlar kiradi, ya'ni: mashq, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi va h.k.

3) uchinchi guruh metodlari – bu metodlarga o'qitilganlarni o'zlashtirishni nazorat qilish va baholash metodlari kiradi, ya'ni: mustaqil va nazorat ishlari, test topshiriqlari, tanlovlar va h.k.

Diqqat qilinsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish uchun tanlanadigan metodlar guruhlariga bo'linib, idrok etilishi kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan o'qitish metodlarini tanlashda ularning samaradorligiga asosiy e'tiborni qaratish zaruriyat hisoblanadi. Ingliz olimi K.Rodgers yillar davomida olib borgan nazariy-amaliy tadqiqotlari natijasida quyidagilar o'qitish jarayoni metodini qulaylashtirishi va yengillashtirishini aniqlagan:

- a) ta'lim oluvchilarda o'quv jarayoni to'g'risida to'liq tasavvur berish;
- b) ta'lim oluvchilarni o'qitish jarayoniga to'liq jalb etish va ularning faolligiga e'tibor berish;
- v) o'qitish jarayonida yuzaga keladigan ta'lim muammolarini darhol shu vaqtning o'zida hal etish;
- g) ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish;
- d) imkon qadar guruhlarda 7-10 nafar ta'lim oluvchilarning bo'lishiga erishish¹².

Bunday tajribalardan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish jarayonida tanlanadigan metodning samaradorligiga erishish uchun foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, mamlakatimizda amaliy faoliyat

ko'rsatayotgan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ilg'or va individual metodlaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi.¹³

Umuman, keyingi paytlarda mamlakatimiz maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida o'qitish metodikalarini takomillashtirish jarayoni kechmoqda. Bunda asosiy e'tibor o'qitish metodikalarining amaliy hayot bilan bog'liqligiga qaratilmoqda. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabarlari mazkur masalalardan xabardor bo'lishi, oliy pedagogik ta'lim jarayonida metodlardan amaliy foydalanish ko'nikmasini o'zlashtirishi kerak. Misol uchun, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil fevral oyidan boshlab oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim jarayonlarida haftasiga 4 kun nazariy o'qish hamda 2 kun amaliyot o'tashini tashkil etish tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan tizim bu borada juda samarali hisoblanadi. Unga ko'ra, oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan metodlarga oid nazariy bilimlarni haftaning o'zidayoq amaliyotda sinab ko'rish imkoniyati mavjud. Shu sababli bu amaliy tizimning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tavsiya etiladi.

3-11 yoshli bolalarni o'qitishning pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishning pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarini tanlashda umumiy pedagogik qonuniyatlarga asoslaniladi. Aks holda, tanlangan vositalar kutilgan amaliy samarani bermaydi. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

1) *maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishning pedagogik texnologiyalari.* Bu texnologiyalarning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi: dars-o'yin, bilimqochiman-bildim-bilaman, zamonaviy treningli darslar va h.k. Mazkur toifa pedagogik texnologiyalarida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining muayyan pedagogik talablarga qat'iy rioya qilish xususiyati mavjud. Masalan, o'qituvchining vazifasi ta'lim berish va ta'lim oluvchining vazifasi bilim olish. Bu oddiy haqiqat pedagogik texnologiyalarning negizini tashkil etadi.

2) *maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishning innovatsion texnologiyalari.* Mazkur texnologiyalarning asosiyarlari quyidagilardan

iborat: interfaol ta'lim, masofaviy ta'lim, elektron-modulli ta'lim va h.k. Bu texnologiyalarda ta'lim beruvchi zimmasiga ko'proq mas'uliyat yuklanadi, ya'ni u ta'lim jarayonini mutlaqo yangicha yondashuvlar, vositalar va metodlar asosida tashkil etishni yo'lga qo'yishi kerak. Shu sababli, misol uchun, innovatsion texnologiyalarga asosan ta'lim beruvchi tajribali mutaxassis "innovator o'qituvchi" deb ataladi.

3) *maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitishning axborot texnologiyalari.* Ushbu texnologiyalarning asosiyarlari quyidagilardan iborat: kompyuter, TV, radio, mobil kabi axborot aloqa vositalari orqali amalga oshiriladigan texnologiyalar, Internet global tarmog'i vositasida qo'shma ta'lim shaklida amalga oshiriladigan texnologiyalar, informatsion loyihalash asoslariga tayangan holda beriladigan ta'lim texnologiyalari va h.k. Ushbu o'qitishning axborot texnologiyalari qulayligi, qiziqarliligi va ta'lim oluvchilarning faolligiga asoslanishi bilan amaliy ahamiyatga ega. Misol uchun, kompyuter o'quv-texnik vositasi asosida amalga oshiriladigan o'qitish ta'lim oluvchilarning fikrlash, ijodiy yondashuv, mustaqil harakat kabi jihatlardan foydalaniladi. Shu sababli o'qitishning axborot texnologiyalari ko'p hollarda kutilgan samarani beradi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qitishning pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari bo'yicha nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar aynan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtiriladi. Shu sababli talabalar bu borada vaqt tejankorligi tamoyili asosida ana shu uch toifa texnologiyalarning eng asosiylarini nazariy hamda amaliy jihatdan chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

3-11 yoshli bolalarni o'qitish texnologiyalariga qo'yiladigan pedagogik va psixologik talablar. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish uchun tanlanadigan texnologiyalarga bir necha talablar qo'yiladi. Bu talablarning asosiyarlari ijtimoiy, pedagogik, psixologik, estetik va texnologik ehtiyojlardan iborat. Ayni paytda, mazkur talablarning negizini pedagogik va psixologik talablar tashkil etadi. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor berish va ularni o'zlashtirish kutilgan samarani beradi:

1) *maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish uchun tanlanadigan texnologiyalarga qo'yiladigan pedagogik talablar.* Mazkur talablarning asosiyarlari quyidagilardan iborat:

¹³ Karimjonov A., Ochiylov F. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya muammolari (ilg'or o'qituvchilar tajribasidan). – Toshkent, 2021.

- har qanday sharoit, muhit va vaziyatlardan qat'iy nazar bolalarga talab darajasida ta'lim berish;

- ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning manfaatlarini qat'iy darajada ustuvor qo'yish;

- jamiyat ehtiyojlari darajasida maskur toifa bolalarni bilim va tarbiya olamiga olib kirish;

- bu toifa bolalarning layoqatlarini pedagogik texnologiyalar vositasida rivojlantirib borish.

E'tibor berilsa, bu pedagogik talablar o'qitish uchun tanlanadigan texnologik talablarning ta'lim qonuniyatlariga asoslanishini ta'minlaydi.

2) *maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish uchun tanlanadigan texnologiyalarga qo'yiladigan psixologik talablar*. Bu toifa talablarning asosiy qaydagi talablardan iborat:

- maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning ruhiy xususiyatlari, ruhiy rivojlanish jarayoni va ruhiy imkoniyatlarini hisobga olish;

- mazkur toifa bolalarning ruhiyatida kechadigan vaqtinchalik ziddiyatlar yoki ruhiy ko'tarinkiilik kaffiyatlardan foydalanish bilan tanlangan texnologiyaning yumshoqligiga erishish;

- ushbu toifa bolalar bilan munosabatda psixologik qonuniyatlarga qat'iy amal qilish;

- tanlangan texnologiyalarning psixologik samaradorligiga erishish.

Diqqat qilinsa, bu psixologik talablar o'qitish uchun tanlanadigan texnologiyalarning insonparvarlik xususiyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Umuman, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish uchun tanlanadigan texnologiyalarga qo'yiladigan pedagogik va psixologik talablarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish taqozo etiladi. Shu jihatdan pedagogik turkumdagi fanlarni "Texnologiyalarni tanlashda pedagogik va psixologik talablar" mavzusi bilan boyitish kutilgan samarani beradi.

Shunday qilib, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish texnologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan amaliy ahamiyatga ega. Bu boradagi nazariy tushunchalar, ko'nikmalar va yondashuvlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirishi kerak.

A'maliy mashg'ulot

Quyidagi mavzular bo'yicha suhbat o'tkazing:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish metodlari.

2. 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari.

3. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish texnologiyalariga qo'yiladigan pedagogik va psixologik talablar.

Suhbat yakunida faol talabalar o'qituvchi tomonidan baholalanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish metodlarini o'zlashtiring.

2. 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari asoslarini konspekt qiling.

3. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish texnologiyalariga qo'yiladigan pedagogik va psixologik talablar bo'yicha amaliy ko'nikma hosil qiling.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Pedagogika fanidan izohli lug'at. J.Hasanboyev va boshq. – T.: "Fan va texnologiya". 2009.

2. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan elektron-modulli didaktik ta'minotni tayyorlash texnologiyasi. – T., 2021.

3. Mardanov Sh.Q., Zakirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T., 2021.

4. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika. – T., 2021.

9-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllari

Reja:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllarini tushirish.

2. Maktabgacha ta'limda o'yin dars shakllari.

3. Boshlang'ich ta'limda dars shakllari va uslublari.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ta'lim, o'qitish, shakl, dars, uslub, individuallik.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllarini tanlash talablari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda o'qitishning shakllarini oqilona tanlash muhim ahamiyatga ega. Chunki ta'limning bu bosqichlarida bolalar bilim, ko'nikma va malaka olamiga olib kiriladi. Ayni paytda, mazkur toifa ta'lim oluvchilar yillar kesimida pedagogik, psixologik va estetik jihatlardan o'ziga xos munosabatlarda bo'lishni taqozo etadi. Shu sababi o'qitish shakllarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda o'qitish shakllarini tanlashning eng muhim talablari tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar uchun o'qitish shakllarini tanlash talablari quyidagi yirik guruhlariga bo'linadi:

- pedagogik talablar;
- psixologik talablar;
- estetik talablar.

1. *Pedagogik talablar.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qitishni amalga oshirish uchun pedagogik talablar majmuiga amal qilish taqozo etiladi. Bunday talablarning asosiy lari quyidagilardan iborat:

- 1) o'qitish shakllarini tanlashda mazkur toifa bolalarni rivojlantiruvchi negizlarga e'tibor berish;
 - 2) bu toifa bolalarga kutilgan darajada bilim, tarbiya va ko'nikma beruvchi shakllarni tanlash;
 - 3) shakllarni tanlashda mutaxassislar yoki tajribali pedagoglar yordamidan foydalanish.
- Bunday yondashuv o'qitishning maqbul shaklini pedagogik jihatdan tanlashda qo'l keladi.

2. *Psixologik talablar.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar uchun o'qitish shakllarini tanlashda psixologik talablarga asoslanish muhim o'rin tutadi. Chunki psixologik talablar bolalarni ta'lim va tarbiya jarayoniga ruhiy hamda ma'naviy jihatdan tayyorlaydi. Shu jihatdan mazkur toifa

bolalarga o'qitish shakllarini tanlashda quyidagi psixologik talablarga amal qilish taqozo etiladi:

1) 3-6 va 7-11 yoshli bolalarning psixologik xususiyatlarini qat'iy hisobga olish (chunki bu yoshlar oralig'ida bolalar ruhiy rivojlanish jarayonida bo'ladi);

2) o'qitish shakllarining bolalarga ijobiy-ruhiy ta'sir ko'rsatuvchi asoslariga qat'iy e'tibor berish (negaki mazkur yoshdagi bolalar o'qitishning shakllaridan ham ruhiy ta'sirlanadi);

3) o'qitishning shakllarini tanlashda imkon qadar motivatsion-psixologik usullarga tayanish.

Mazkur talablar asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar uchun o'qitishning shakllarini psixologik jihatdan to'g'ri tanlab olish mumkin.

3. *Estetik talablar.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar uchun o'qitishning shakllarini tanlashda estetik talablarning amaliy ahamiyati katta. Shu sababi bu borada quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1) 3-11 yoshli bolalarda hissiyot, qiziqish va intilish uyg'otadigan o'qitish shakllarini tanlash;

2) tanlangan o'qitish shakllarining mazkur yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, ruhiy va estetik jihatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini hisobga olish;

3) imkon qadar estetik-idrokli va dizayn jihatdan bolalarda taassurot uyg'otadigan o'qitish shakllarini tanlash.

Bunday yondashish 3-11 yoshli bolalarni o'qitish uchun tanlanadigan shakllarni estetik jihatdan to'g'ri amalga oshirishga olib keladi.

E'tibor berilsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish uchun tanlanadigan shakllarga pedagogik, psixologik va estetik talablardan kelib chiqish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki pedagogik talablar ta'lim va tarbiya jarayonini nazariy jihatdan asoslaydi, psixologik talablar bolalarni bu jarayonga tayyorlaydi va estetik talablar ushbu ta'lim bosqichlarida o'qitishning eng maqbul shakllarini tanlab olishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limda o'yin dars shakllari. Maktabgacha ta'limda bolalarni maktabga tayyorlash jarayoni muhim o'rin tutadi. Shu sababi

mamlakatimiz va jahon mamlakatlari maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yin dars shakllaridan keng foydalanib kelinmoqda. Bu dars shaklining amaliy samaradorligi pedagogik tajribadan o'tgan. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, o'yin dars shaklini tayyorlash jarayoniga o'qituvchi tomonidan alohida tayyorgarlik ko'riladi va bunday darsning har bir mashg'uloti bir-birini to'ldiruvchi hamda boyituvchi tamoyillarga asoslanishi kerak. Shu bilan birga, o'yin dars shakli mashg'ulotning samaradorligiga erishishga olib borganidek, o'yin dars shakli mashg'ulotning nisbatan ko'p foizini o'yin tashkil etmasligi kerak. O'yin dars shaklida asosiy maqsad mashg'ulotning samaradorligiga erishish bo'lishi taqozo etiladi. Shu jihatdan maktabgacha ta'limda o'yin dars shakllarining quyidagilarini tanlash kutilgan samarani beradi:

- 1) an'anaviy o'yin dars shaklidan foydalanish (bunda bolalar guruhga bo'linadilar, mavzularning mazmuni o'yin shaklida o'zlashtiriladi);
- 2) noan'anaviy o'yin dars shaklidan foydalanish (bunda bolalar ikki guruhga bo'linib, kompyuter texnikasi vositasida onlayn tarzda o'yin shaklida mavzularni o'zlashtiradi);
- 3) individual o'yin dars shaklidan foydalanish (bunda hududlardagi maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarining individual va tajribali o'yin dars shakllaridan foydalaniladi).

Mazkur o'yin dars shakllari amaliy negizlarga egaligi bilan muhim o'rinni tutadi. Umuman maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan o'yin dars shakllarining rang-barangligiga erishish kutilgan samarani beradi.

O'yin dars shakllari aslida XVI asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan "Didaktika" asarida asoslab berilganligini ta'kidlab o'tish lozim. Shundan keyin Yevropa pedagog olimlari tomonidan o'yin dars shakllari ilmiy jihatdan tadqiq etilib, amaliyotga joriy etildi. Bu borada olimon pedagogi logan Pistalotssi (XVIII asr) va fransuz pedagogi Mariya Montessorining (XX asr) ilmiy va amaliy xizmatlari yuksak bo'lganligini ta'kidlab o'tish joiz. Misol uchun, Pistalotssi tomonidan boshlang'ich sinflarda o'yin dars shaklining ilmiy, nazariy va amaliy asoslari o'quvchilarning yosh hamda ruhiy xususiyatlaridan kelib chiqib yaratilgan. Montessori tomonidan esa maktabgacha ta'limda o'yin darsning shakllari asoslab berilgan va olimning fikricha, bu toifa bolalarni faqat o'yin vositasida bilim hamda tarbiya olamiga olib kirish mumkin. Shu sababi Komenskiy, Pistalotssi va Montessorining metodologiyasi butun dunyo mamlakatlari maktabgacha hamda

boshlang'ich ta'lim tizimida bugungi kunga qadar amal qilib kelinmoqda. Mazkur masalalar bo'yicha bo'lajak o'qituvchilar aniq ma'lumotlarga ega bo'lishi taqozo etiladi. Buning uchun Komenskiyning "Didaktika", Pistalotssining "Gerkturga maktablar" va Montessorining "Metodlar" asarlarini o'qish va ularni o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich ta'limda dars shakllari va uslublari. Boshlang'ich ta'limda o'qitish jarayonini tashkil etish uchun dars shakllari va uslublarining ahamiyati hamda ularning samaradorligi muhim hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim, tarbiya va ko'nikma olish jarayoniga to'liq kirganligi bilan mazkur masalalarda oqilona yondashish taqozo etiladi. Shu sababi boshlang'ich ta'limda dars shakllari va uslublarini tanlashda o'qituvchilar hamda Sinf rahbari muntazam ravishda amaliy ishlarni amalga oshirib borishi kerak.

Boshlang'ich ta'limda dars shakllarining turlari ko'p. Bu o'rinda ularning eng muhimlarini eslatib o'tish joiz:

- 1) an'anaviy dars shaklidan foydalanish;
- 2) masofaviy dars shaklidan foydalanish;
- 3) texnologik dars shaklidan foydalanish.

Bu dars shakllari o'zlarining nazariy va amaliy asoslarga egaligi bilan ahamiyatga ega. Misol uchun, texnologik dars shaklida mutaxassis ishirokida o'quv-texnik vositalaridan foydalanilgan holda mashg'ulot o'tiladi. Bunday dars shakli vositasida, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda tillarni o'qitishda muhim samaraga erishish mumkin.

Boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan dars jarayonida o'ziga xos uslublarga tayyanish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan bu borada quyidagi uslublarga tayyanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) dars jarayonida o'quvchilarning ta'limiy faolligidan foydalanish uslubi;
- 2) darslarni o'quvchilarning mustaqil bajaruvchi topshiriqlar vositasida tashkil etish uslubi;
- 3) dars jarayonida tajribadan o'tgan va pedagogik asoslarga ega musobaqa, trening hamda muhokama shakllardan foydalanish uslubi.

Bu uslublar boshlang'ich ta'limda dars jarayonining qiziqarli, samarali va taassurotlarga boy tarzda o'tilishiga asos bo'ladi.

E'tibor berilsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllari hamda uslublari turli-tuman bo'lib, ularning eng maqbullari tanlanishi kerak. Buning uchun maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muassasalarining tajribali o'qituvchilari bilan hamkorlik qilish samarali hisoblanadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllari hamda uslublarining nazariy, metodik va amaliy asoslarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli pedagogik va mutaxassislik turkumlaridagi fanlar, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalari mazkur ta'kidlanganlarni chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Aynan mana shu masala ularning kasbiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga asos bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi mavzularda bahs-munozara o'tkazing:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllarini tanlash talablari.
 2. Maktabgacha ta'limda o'yin dars shakllari.
 3. Boshlang'ich ta'limda dars shakllari va uslublari.
- Bahs-munozara yakunlari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllarini tanlash talablari"ni konspekt qiling.
2. Maktabgacha ta'limda o'yin dars shakllarini o'zlashtiring.
3. Boshlang'ich ta'limda dars shakllari va uslublarini o'rganing.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan elektron-modulli didaktik ta'minotni tayyorlash texnologiyasi. – T., 2021.
2. Jabborova O.M., Umarova Z.A., Boboxodjayeva L.M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – T., 2021.
3. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T., 2009.

4. Umarova Z.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – T., 2021.

10-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar o'zlashtirishini baholash indikatorlari

Reja:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash asoslari.
2. Rag'batlantirish metodi.
3. Baholashning ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ta'lim, o'zlashtirish, baholash, asos, rag'batlantirish, tarbiya, metod.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash asoslari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash asoslari, metodologiyasi va amaliy yo'nalishlari takomillashib bormoqda. Bu borada o'ziga xos tadrifiy rivojlanish xususiyati ko'zga tashlanib turadi. Shu jihatdan mazkur o'rinda bu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz:

Maktabgacha ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash individual yondashuvni taqozo etadi. Bunda maktabgacha ta'lim davlat dasturi, malaka talablari va namunaviy o'quv rejasiga qat'iy asoslaniladi.¹⁴ Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim oluvchilar quyidagi mashg'ulotlarni o'zlashtirish bo'yicha baholanadilar:

1) 3-4 yoshlilar:

- atrofdagi olam bilan tanishish;
- tabiat bilan tanishish;

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaro'i. // www.ziyounet.uz

- nutqni rivojlantirish;
- sensor tarbiya;
- elementar matematika;
- applikasiya;
- plastilin va loydan yasash;
- jismoniy tarbiya;
- musiqa.

Mazkur o'quv mashg'ulotlari bo'yicha 3-4 yoshli tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirganlik darajasi murabbiy va maktabgacha ta'lim pedagogi tomonidan amalga oshiriladi;

2) 4-5 yoshlilarning ham ana shu mashg'ulotlar bo'yicha maktabgacha ta'lim pedagogi tomonidan o'zlashtirganlik darajasi baholab boriladi;

3) 5-6 yoshli maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari ham yuqoridagi mashg'ulotlarni o'zlashtirganlik nuqtai nazaridan baholanadi;

4) 6-7 yoshlilar. Bu yoshlardagi tarbiyalanuvchilar qayd etilgan mashg'ulotlardan tashqari savodxonlik va o'rganish, rasm chizish mashg'ulotlari asosida ham o'zlashtirganlik darajasi baholanadi. Shu sababli mazkur yoshdagi tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholashda ularning alifboni o'zlashtirganligi, yozish, o'qish, hisob va chizishni bilishi hisobga olinib baholanadi. Umuman, maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini o'zlashtirganlik darajasini baholashda amaldagi quyidagi mashg'ulotlar turlariga alohida e'tibor beriladi:

T/r	Faoliyat turlari	O'tkazish davriyligi
1	Bolalarning erkin va mustaqil faoliyati	Har kuni
2	O'yin faoliyati	Har kuni
3	Tasviriy faoliyat	Haftasiga 2 marta
4	O'rganuvchi tadqiqiy faoliyat (atrofdagi olamni anglash)	Haftasiga 2 marta
5	Tabiat bilan tanishuv	Haftasiga 1 marta
6	Matematika	Haftasiga 2 marta
7	Musiqa	Haftasiga 2 marta
8	Jismoniy madaniyat	Haftasiga 2 marta
9	Nutqni rivojlantirish	Haftasiga 1 marta
10	Savodxonlikka o'rgatish	Haftasiga 1 marta

Mazkur mashg'ulotlar vositasida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining o'zlashtirganlik darajasi baholab boriladi. Shu sababli bu ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun qo'yiladigan talablarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori bilan tasdiqlangan quyidagi o'quv fanlari asosida baholanadi:¹⁵

- 1) Ona tili va o'qish;
- 2) O'zbek tili / Rus tili;
- 3) Chet tili;
- 4) Matematika;
- 5) Tabiiyot;
- 6) Tarbiya;
- 7) Musiqa madaniyati;
- 8) Tasviriy san'at;
- 9) Texnologiya;
- 10) Jismoniy tarbiya.

Mazkur o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirganlik darajasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholashga asos bo'ladi. Bugungi kunda ushbu o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholashning shakllari ko'payib borayotganligini ta'kidlash joiz. Bunday shakllarning asosiy larini quyidagilar tashkil etadi:

- o'quv fanlari mavzularini o'zlashtirish bo'yicha baholash;
- mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish darajasi bo'yicha baholash;
- uy vazifalarini bajarish bo'yicha baholash;
- o'quvchilarning o'quv fanlarini o'zlashtirish natijasida mustaqil va ijodiy fikrlash darajasini baholash.

Baholashning bunday zamonaviy shakllari boshlang'ich ta'limning hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish neqizlaridan biri hisoblanadi.

Umuman, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholash tizimida qat'iyatlik va standartlik ustuvor bo'lsa-

da, lekin bunday yondashuvlar o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimi, ko'nikmasi hamda malakalarini nazorat qilib borish imkonini beradi. Shu sababli hozirgi zamon jahon ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini adolati baholab borish tizimi amalda bo'lib kelmogda.

Rag'batlantirish metodi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'zlashtirganlik darajasini baholashda *rag'batlantirish metodi*ga asoslanish bu boradagi Davlat ta'lim standartlari hamda malaka talablarini ijro etish, mashg'ulotlar jarayonini demokratlashirish, insonparvarlashirish va uning samaradorligiga erishishda muhim o'rin tutadi. Keyingi paytlarda, texnologik rivojlanishning kuchayganligi sababli ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini rag'batlantirish masalasiga kam e'tibor berilmogda. Chunki mashg'ulotlarning ko'p qismini texnologiyalashtirish natijasida go'yoki ta'lim oluvchilar belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni teng o'zlashtirayotgandek tuyulmogda. Kompyuter texnikasi vositasida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish, onlayn va offlayn shakllarda amalga oshirilayotgan mashg'ulotlarni mazkur texnologiya vositasida o'zlashtirish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini bir xil tasavvur qilish xususiyatlarini paydo qiladi. Biroq, texnologiya rivojlangan davrda ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholashda faqat pedagogik talablar, qonuniyatlar, uslublar va usullarga qat'iy amal qilish taqozo etiladi. Chunki ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasi ularning layoqati, iqtidori va ta'limiy faolligiga mos ravishda har xil bo'ladi. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini rag'batlantirish metodini unutilib bo'lmaydi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholashda hamda rag'batlantirishda uch bosqichli shaklga asoslanish kutilgan samarani beradi. Bular mashhur yondashuvlarning va baholashning o'zidir:

- 1) qoniqarli;
- 2) yaxshi;
- 3) a'lo.

Mazkur baholash tizimi asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganligi guruhlar kesimida rag'batlantiriladi. Shu jihatdan e'tibor bering:

- 1) qoniqarli baho olgan guruhni rag'batlantirish;

- 2) yaxshi baho olgan guruhni rag'batlantirish;
- 3) a'lo baho olgan guruhni rag'batlantirish.

Bunda qoniqarli baho olgan guruhni rag'batlantirish ularda bilim, ko'nikma va malakalarni yanada kengroq o'zlashtirishga da'vat qilish bilan amalga oshiriladi; yaxshi baho olgan guruhni rag'batlantirish ularning a'lo baho olishga yo'naltirish bilan amalga oshiriladi va ayni paytda, a'lo baho olgan guruh ma'naviy jihatdan namuna sifatida ko'rsatilib rag'batlantiriladi.

Rag'batlantirish olgan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar uchun o'ziga xos yo'naltirish va motivatsiya vazifalarini bajaradi. Shu sababli mazkur metoddan maktabgacha va boshlang'ich ta'limda oqilona foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun bo'lajak o'quvchilar oliy pedagogik ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarni rag'batlantirishning turli-tuman shakllarini o'zlashtirishi tavsiya etiladi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, rag'batlantirish metodidan o'zga metodlarga nisbatan pedagogik faoliyatda juda qadimdan foydalanib kelinmogda. Chunki bu metod negizida inson ruhiyati bilan bog'liq xususiyatlar mavjud. Masalan, maqlov eshingan bolada ruhiy ko'tarinkilik, o'quvchiga nisbatan iliq munosabat va ko'proq bilishga intilish xususiyatlari paydo bo'ladi. Umuman, rag'batlantirish kabi ruhiy xususiyatlarga ega metodlar imkoniyatlaridan foydalanish Bolalar pedagogikasi o'quv fanining metodologik asoslaridan birini tashkil etadi.

Baholashning ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash orqali muhim amaliy natijalarga erishiladi. Buning uchun quyidagi natijalarni ta'kidlab o'tish joiz:

- bolalarning bilim darajasini dinamik o'sib borishini nazoratga olish;
- bolalarda bilim ko'nikmasining shakllanish jarayonini kuzatib borish;
- bolalarning tarbiyalanish jarayonini takomillashtirish;
- bolalarni keyingi ta'lim bosqichlari va ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatga amaliy tayyorlash.

E'tibor berilsa, baholashning ta'lim va tarbiyadagi amaliy ahamiyati muhimdir. Shu sababli bu borada turli yondashuvlarga asoslanish zamonaviy pedagogikada tavsiya etib borilmogda. Bunday tavsiyalarning muhimlari quyidagilardan iborat:

1) bolalarning o'zlashtirganlik darajasini adolati baholash uchun inson omili kam bo'lgan kompyuteri texnologiyalarga asoslanish;

2) bolalarning o'zlashtirganlik darajasini baholashda ularning ijtimoiy ongi, bilim darajasi va axloqiy ko'nikmalari to'g'ri shakllanayotganligini hisobga olish;

3) bolalarning o'zlashtirganlik darajasini baholashda test, yozma ish, mustaqil ta'lim topshiriqlari kabi shakllardan oqilona foydalanish;

4) bolalarning o'zlashtirganlik darajasini baholash ma'lumotlarini yangi tashkili etilgan Elektron kundalikda qayd etib borish.

Bulardan maqsad maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholash bilan ularning amaliy motivatsiyasini amalga oshirishdan iborat. Motivatsiya mazkur toifa ta'lim oluvchilarining bilim, ko'nikma va tarbiya olish jarayonini faollashtiradi.

Bolalarning ta'lim va tarbiyasida samaradorlikka erishishning eng muhim vositalaridan biri baholash ekanligini unutmashlik lozim. Chunki baholash kategoriyasi mazmunida quyidagilar mavjudligini eslatib o'tish joiz:

- bolalarning o'zlashtirish jarayoni qanday kechayotganligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish;

- baholash vositasida bolalarni rag'batlantirish;

- baholash asosida bolalarda adolat tuyg'usini tarkib topirish;

- baholash vositasida bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish.

E'tibor berilsa, baholash kategoriyasining bunday imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak bo'ladi. Bolalar pedagogikasi fani baholash mazmuniga ana shu nuqtai nazardan yondashadi. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilar baholash kategoriyasining ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni aniq bilishlari taqozo etiladi.

Pedagogika fani tajribasida baholashning juda qadimiy tarixga ega ekanligini eslatib o'tish lozim. Chunki baholash kategoriyasi aynan ta'lim va tarbiya jarayoni bilan birgalikda paydo bo'lgan. Qadimgi murabbiylar baholashning ta'lim va tarbiya samaradorligiga ijobiy ta'sirini anglab, bu tizimni asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tkazib kelmogdalar. XX asrda baholash me'yoriy-huquqiy hujjatlar vositasida ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim pedagogik kategoriyasi sifatida belgilangan. Bolalarning barchasi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda baholashning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Shunday qilib, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash indikatorlarini baholash asoslari, rag'batlantirish va baholashning amaliy ahamiyati tashkil etadi. Mazkur masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yangi ta'lim yo'nalishi talabalari tomonidan chuqur o'zlashtirishni tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi mavzularda guruhlar bo'yinib baha-munozara qiling:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash asoslari.

2. Rag'batlantirish metodi.

3. Baholashning ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati.

Baha-munozara natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholash asoslarini konsept qiling.

2. Baholashning rag'batlantirish metodi ahamiyatini o'zlashtirish.

3. Baholashning ta'lim va tarbiyadagi amaliy ahamiyatini amaliyot davrida sinovdan o'tkazing.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T., 2017.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi, 2000.
3. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: "Fan", 2001.

4. Бородовская Н.В., Пеан А.А. Педагогика. – СПб.: "Питер". 2001.

3-MODUL. BOLALAR PEDAGOGIKASIDA TARBIIYA

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va uning asosiy dasturlaridan biri “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta’lim muassasalarining faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida bo‘ljak pedagog kadrlarni yosh avlodni munosib tarbiyalash ishiga bugungi kun talablari asosida tayyorlash vazifasi qo‘yilgan. Chunki tarbiya nafaqat pedagogik jarayonning uzviy qismi, balki jamiyatimiz rivojining asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan “Bolalar pedagogikasi” o‘quv fanining mazkur 3-modulida maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim oluvchilarni tarbiyalash asoslari, maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim oluvchilarni tarbiyalashning umumiy hamda individual xususiyatlari, mazkur bosqich tarbiya oluvchilarning sensor tarbiyasi hamda ularning tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari mavzulari tahlil etilgan. Asosiy e’tibor maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim oluvchilarni amaliy jihatdan tarbiyalash, ularning milliy axloqi hamda ongini shakllantirish, amaliy faoliyatga tayyorlash masalalariga qaratilgan.

11-mavzu: Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim oluvchilarni tarbiyalash asoslari

Reja:

1. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim oluvchilarni tarbiyalash tushunchasi.
2. Tarbiya nazariyasining xususiyatlari.
3. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda tarbiyani amalga oshirish talablari.
4. 3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash tizimi.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, bolalar, tarbiya, nazariy, xususiyat, amaliyot, ko‘nikma, malaka.

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim oluvchilarni tarbiyalash tushunchasi.

Tarbiya bolalar pedagogikasining muhim kategoriyasi hisoblanadi. *Tarbiya* – bu “avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiladigan, ta’lim, oila kabi muassasalar orqali amalga oshiriladigan muhim jarayon”dir.¹⁶ Bolalar pedagogikasida tarbiyaning asosiy maqsadi 3-11 yoshli shaxslarni aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik jihatdan dastlabki bosqichda shakllantirishdan iborat. Uning mohiyati mazkur yoshdagi bolalarni ijtimoiy muhimga olib kiritishdan iborat. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim oluvchilarni tarbiyalash vazifalarini quyidagilar tashkil etadi:

- 1) tarbiyaning keng jarayonli xususiyatlaridan foydalanib har bir maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim oluvchilarni ijtimoiylashtirish;
- 2) mazkur toifa bolalarda tarbiyaviy ko‘nikmalarni shakllantirish;
- 3) bu toifa bolalarning ijtimoiy, axloqiy va estetik layoqatlarini rivojlantirish;
- 4) ushbu toifa bolalarni ta’limning keyingi bosqichlarida tarbiyalanishi uchun tayyorlash.

Xalqaro miqyosda e’tirof etilgan pedagog olimlarning fikricha, tarbiyaning turli shakllarda bo‘lishi uchun ob’ektiv (aniq) va sub’ektiv (nazariy) omillarni hisobga olish samarali hisoblanadi.¹⁷ Ushbu ob’ektiv omillar quyidagilardan iborat:

- tarbiyaning irsiyat va insonning salomatligiga asoslanishi;
- oila tizimidayoq ijtimoiy va madaniy tarbiyaning ilk bosqichini boshlash;
- bolalarning milliy an’ana va urf-odatlar asosida tarbiyalanishiga e’tibor berish;
- bolalar mansub bo‘lgan millat va davlatning tarixiy rivojlanishi tajribalariga asoslanish.

Tarbiyaning sub’ektiv omillari esa quyidagilardir:

- bolalarning ruhiy imkoniyatlari va shakllanayotgan shaxsiga oid manfaatlarini tarbiya jarayonida hisobga olish;

¹⁶ Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug’ati. – Toshkent, 2010. 527-bet.

¹⁷ Бородюская Н., Рен А. Педагогика. – СПб., 2001. – С. 33.

- bolalarning ijtimoiy ongi, ijtimoiy axloqi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish;

- bolalarni jamoaparvar ruhida tarbiyalash va ularni jamiyat hayotiga tayyorlash.

Bu omillar maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalashning eng muhim asoslarini belgilaydi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash tushunchasida ularning tarbiyalanganlik *mezonlarini* to'g'ri belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan tajribali pedagoglar tomonidan bunday mezonlarning asosiy sifatlari quyidagilar tavsiya etilgan:

1) bolalarda (ularning guruhlari, jamoasi va umuman jamiyada) ezigulik xulq-atvorining tarkib topganligi;

2) bolalarda o'z axloqiy va ijtimoiy faoliyatida haqiqatga tayyanish ko'nikmalarining talab darajasida shakllanganligi;

3) bolalarda go'zallikni his etish tuyg'usining tarkib topganligi¹⁸.

Mazkur mezonlar asosida maktabgacha ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasi aniqlanadi va baholanadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash tushunchasining mazkur asoslarini maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalari chuqur o'zlashtirishi taqozo etiladi. Buning uchun mazkur "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanini chuqur o'zlashtirish tavsiya qilinadi.

Tarbiya nazariyasining xususiyatlari. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning eng muhim bo'limi bo'lib, unda tarbiya bo'yicha nazariy asoslar, tarbiya metodologiyasi va tarbiya vositalari ifodalanadi. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalashning *nazariy xususiyatlari* o'ziga xos bo'ladi. Bu borada quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

1) tarbiya nazariyasi asoslarini insoniyatning tajribasidan o'tgan tarbiya manbalari (muntaz asarlar, arxeologik topilmalar, tajribadan o'tgan urf-odatlar, yondashuvlar) va tarbiyaga oid ilmiy-tadqiqotlar tashkil etadi;

2) tarbiya metodologiyasi tarbiyaning didaktik asoslari, metodlari va zamonaviy texnologiyalaridan iborat;

3) tarbiya vositalarini o'quv adabiyotlari, texnik jihozlar va ko'rgazmali ishlanmalar tashkil qiladi.

¹⁸ Shu manba 34-bet.

Mazkur yondashuv asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarga tarbiya beriladi va bu hol nazariy jihatdan asosi hisoblanadi. Shu sababli "Bolalar pedagogikasi" fanida mazkur toifa bolalarga beriladigan tarbiyaning nazariy xususiyatlari muammolari endi tadqiq etilayotganligini eslatib o'tish joiz. Ayni paytda, bu borada "Umumiy pedagogika" hamda "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", yangi fan bo'lgan "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" fanlari darsliklarida yoritilgan tarbiya nazariyasi asoslariga taylanadi. Shu sababli mazkur fanlardagi matnlaridan foydalanishda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning xususiyatlarini hisobga olish shart hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi o'qituvchilari pedagogik va mutaxassislik fanlari vositasida tarbiya nazariyasining xususiyatlarini o'zlashtirish tavsiya etiladi. Shuni eslatib o'tish joizki, mazkur toifa bolalarga xorijiy tillarni o'qitish jarayonida, ayniqsa, tarbiya nazariyasining mazkur toifa bolalarga mos jihatlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ushbu toifa bolalar aqliy, axloqiy, jismoniy va estetik jihatdan dinamik rivojlanishda bo'lishi ma'lum. Shu sababli bo'lajak o'qituvchilarga ushbu toifa ta'lim oluvchilarning xususiyatlariga mos tarbiya nazariyasi asoslarini tanlash tavsiya etiladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda tarbiyani amalga oshirish talablari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalashga o'ziga xos tarzda yondashish taqozo etiladi. Bunda tarbiyani amalga oshirishning bir necha *talablari*ga rioya qilish kerak bo'ladi. Shu sababli bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ga asoslanish tavsiya etiladi.¹⁹ Mazkur Konsepsiyada "ma'naviy tarbiya" tushunchasi tarbiyaning barcha turlarini qamrab olgan atama sifatida ishlatilganligini eslatib o'tish joiz. Konsepsiyada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash bosqichlari quyidagicha berilgan:

birinchi bosqich – oilalarda bola tug'ilgandan 3 yoshgacha tarbiyani amalga oshirish;

ikkinchi bosqich – maktabgacha ta'lim muassasalarida 3-6 yoshli bolalarning tarbiyasini amalga oshirish;

¹⁹ Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi. // www.ziyouz.uz

uchinchi bosqich – umumiy o'rta ta'lim tizimida (ikki davr asosida) 1) 7-11 yoshli o'quvchilar tarbiyasi; 2) 12-17 yoshli o'quvchilar tarbiyasi.

E'tibor berilsa, mazkur bosqichlarda oila, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim muassasalari o'zaro bog'liqlikda hamda uzviy davomiylikda 3-11 yoshli bolalarning tarbiyasi amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur bosqichlarning o'zida talablar majmui mavjud bo'lib, ularning asosiy qayidagilardan iborat:

1) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashda Konsepsiya ularni quyidagilarga o'rgatish belgilangan:

- bu toifa bolalarda mardlik, shijoat, qat'iyat, zukkolik, jasorat, go'zallik, oliyanoblik va mehr-shafqatlilik fazilatlarini shakllantirish;

- mazkur toifa bolalarni milliy siymolar, milliy eraklar va multfilm qahramonlari ko'rinishlari vositasida boshlang'ich ta'lim hamda hayotga tayyorlash.

2) Konsepsiyaga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash uchun quyidagi talablar belgilangan:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida Vatanga sadoqat, irodalik, tole-ranlik va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish;

- bu toifa o'quvchilarini mustaqil fikrlash, ijod qilish, o'zlashtirgan tarbiyaviy ko'nikmalaridan foydalana olishga odatlantirish.

Mazkur talablar asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar tarbiyalanadi. Shuningdek, Konsepsiyada o'g'il bolalarda milliy g'urur, qat'iyatlik va oriyatlik fazilatlarini ustuvor darajada shakllantirish, qiz bolalarda esa ibo, hayo, qanoat va mehnatsevarlikni kutilgan darajada shakllantirish talablari ham ta'kidlab o'tilgan. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur talablarning bo'lajak o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Ayni paytda, bunday talablarga rioya qilish bilan tarbiya vositalarining rang-barang va turli-tumanligiga asoslanish ham tavsiya etilgan.

Mazkur talablarning barchasi maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash ishiga yangicha yondashishni taqozo etadi. Shu sababli mazkur masala bo'lajak o'quvchilar tomonidan idrok etilishi va o'zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash talablari jamiyatning ehtiyoji hisoblanadi.

Misol uchun, 2017-yildan boshlab mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yangicha asoslarda rivojlantirish amalga oshirilib kelinmoqda. Bundan maqsad 3-6 yoshli bolalarni jamiyatning ehtiyojlari asosida tarbiyalashdan iborat. Unga ko'ra, jamiyatimizda milliy g'oya, milliy qadriyatlar, milliy tarbiya va milliy xususiyatlarga asoslangan tarbiya jarayoni amalga oshirilishi kerak. Bu jarayonning 3-11 yoshli bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Chunki milliy tarbiya olgan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar ta'limning keyingi bosqichlarida aynan shu yoshda o'zlashtirgan ko'nikmalari asosida faoliyat yuritishini ta'kidlash joiz. Bunda bolalarning ongi, axloq va xatti-harakatlarida milliylikning tarkib topishi asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1803-1870)ning fikricha, "Milliy tarbiya olgan bola o'zga xalqlarning qadriyatlarini va odatlarini ham hurmat qiladi".²⁰ Shu ma'noda pedagog olimning bu fikri maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni milliy ruhda tarbiyalash asosli ekanligini ko'rsatadi. E'tibor berilsa, aynan milliy tarbiya bolani umuminsoniy qadriyatlar olamiga olib kiradi.

3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash tizimi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda eng avvalo, maqbul va qulay tizimga asoslanish kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan bunday tizimning eng asosiy qayidagilardan iborat:

1) mashg'ulotlar jarayonida mazkur toifa bolalarni tarbiyalash ishini amalga oshirish;

2) tarbiyaviy tadbirlar vositasida bu toifa bolalarni muntazamlilik tamoyili asosida tarbiyalash;

3) maktabgacha ta'lim muassasasi, sinf va maktabdan tashqari mashg'ulotlar vositasida ushbu toifa bolalarni tarbiyalash;

4) innovatsion pedagogik klasteri, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagoglari, boshlang'ich sinf o'quvchilari, mutaxassislar va mashhur kishilarning hankorligi asosida ushbu toifa bolalarni tarbiyalash.

Bu tizim bolalarning tarbiya jarayonida uzluksizlik tamoyiliga qat'iy asoslanishi bilan muhim ahamiyatga ega. Mazkur tizimda bolalarni tarbiyalash uchun yuqorida ta'kidlangan Konsepsiyada belgilanganidek quyidagilarga asoslanish tavsiya etiladi:

²⁰ Quram: Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. – Toshkent, 1959.

1) maktabgacha ta'lim muassasalarida amal qilish:

- bolalarning o'z tuyg'ularini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- bolalarda o'z xatti-harakatlarini axloqiy boshqarish ko'nikmalarining tarkib topishi;

- bolalarda shaxsiy fazilatlar asoslarining paydo bo'lishi;
- bolalarda o'zini namoyon qilishga intilish ko'nikmasining shakllanishi.

2) boshlang'ich sinflarda amal qilish:

- o'quvchilarning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish;

- o'quvchilarda o'zi va atrofidagilarning xulqi hamda xatti-harakatlariga munosabat bildirish ko'nikmasini shakllantirish;

- o'quvchilarda tengdoshlari va katta yoshlilar bilan hamkorlik qilish tuyg'ularini tarkib topirish;

- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy ko'nikmalarini chuqurlashtirish;
- o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un tanishtirish.

Bularga amal qilish 3-11 yoshli ta'lim oluvchilarning tarbiya tizimini amaliy jihatdan kuchaytiradi. Aslida muayyan tizim asosida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni o'zining amaliyotga yo'naltirilganligi bilan ajralib turishi kerak.

E'tibor berilsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash ishini amalga oshirishda maqbul tizim tanlab olinishi kutilgan samarani beradi. Chunki bu toifa bolalarni tarbiyalash ishi murakkabligi va amaliy samaralarga erishish kerakligi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shu jihatdan tarbiya ishi tizimini to'g'ri belgilash va undan oqilona foydalanish tavsiya etiladi. Misol uchun, yuqorida ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'lim muassasasi va sinfdan tashqari mashg'ulotlar vositasida bolalarni tarbiyalash amaliy jihatdan muhim samaralarni beradi. Chunki bu yoshdagi bolalar eshitganidan ko'ra, ko'proq ko'rish orqali fazilatlar, sifatlari va ko'nikmalarini o'zlashtirishi ma'lum. Shu ma'noda bugungi kunda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida teatrlar, muzeylar va ko'rgazmalarga olib borish, turli bolalar bayramlari va tarbiyaviy tadbirlari imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash asoslari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu asoslarni oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirish shart. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonidagi maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining reja va dasturlari bugungi kun talablari asosidagi mavzular bilan muntazam boyitilib borilishi, o'quv fanlari darsliklarining izchil ravishda takomillash-tirilishi taqozo etiladi. Buning uchun maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ilmiy, nazariy, metodik va amaliy jihatdan hamkorligini zamonaviy talablar darajasida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi mavzular bo'yicha guruhlariga bo'linib, trening o'tkazing:

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash tushunchasi.

2. Tarbiya nazariyasining xususiyatlari.

3. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda tarbiyani amalga oshirish talablari.

4. 3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash tizimi xususiyatlari.

Trening natijalari o'quvchi tomonidan baholanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash tushunchasini o'zlashtiring.

2. Tarbiya nazariyasining xususiyatlarini konsept qiling.

3. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda tarbiyani amalga oshirish talablarini o'rganing.

4. 3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash tizimi xususiyatlarini o'zlashtiring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Uzlaksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi // www.ziyounet.uz
2. Jabborova O.M., Umarova Z.A., Boboxodjayeva L.M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Darslik. – T., 2020.
3. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – T., 2022.
4. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T., 2009.

12-mavzu: Maktabgacha ta'lim oluvchilarni tarbiyalash

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar.
2. 3-6 yoshli bolalarni ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyalash asoslari.
3. Maktabgacha ta'limda tarbiya samaradorligi.

Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, ta'lim, bolalar, tarbiyalash, talab, asos, estetik, axloqiy, ma'naviy, jismoniy, bilim, ko'nikma.

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim oluvchilarni tarbiyalashning yangi talablari, qoidalari va vositalari shakllantirilgan. Bunda asosiy e'tibor bolalarning xususiyatlariga mos ravishda maktabgacha ta'limni sifatli amalga oshirish va tarbiyalanuvchilarning tarbiya jarayoni samaradorligiga erishishga qaratilgan. Shu jihatdan bu o'rinda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar tahliliga e'tiboringizni tortamiz:

1. *Nazariya va amaliyot uyg'unligi talabi.* O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida, maktabgacha ta'lim davlat standartlari, malaka talablari hamda o'quv dasturlarida tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda nazariya va amaliyot uyg'unligi talabi belgilangan. Unga ko'ra, bolalarning ijtimoiy ongi, dunyoqarashi va axloqini shakllantirishda innovatsion nazariy asoslarga tayanish, ayni paytda, bunda ko'proq bolalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor berish vazifasi qo'yilgan. Nazariya va amaliyot uyg'unligiga rioya qilish bolalarning tarbiyasini bugungi jamiyatimiz ehtiyojlari va maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining shaxsi uchun muhim bo'lgan asoslarni amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi

talablari tarbiyada nazariya va amaliyot uyg'unligi talabini chuqur o'zlashtirishi, unga amal qilish ko'nikmasi bilan qurollanishi taqozo etiladi.

2. *Tarbiyaning turlarini amalga oshirish talabi.* Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashda bugungi kunda amalda bo'lgan tarbiyaning turlari bo'yicha dastlabki bosqichda ishlar amalga oshirildi. Bu asosiy tarbiya turlari aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya va mehnat tarbiyasidan iborat. Mazkur tarbiya turlari bo'yicha bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida dastlabki ko'nikmalarni olishi kerak bo'ladi.

3. *Tarbiyada amaliy samaradorlikka erishish talabi.* Mamlakatimizning barcha ta'lim bosqichlari qatorida maktabgacha ta'lim bosqichida ham tarbiya ishida amaliy samaradorlikka erishish eng muhim talablardan biri hisoblanadi. Bunday talabning negizini bolalarda tarbiyalanganlik ko'nikmalarining tarkib topganligi tashkil etadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni, eng avvalo, amaliy samaradorlikka yo'naltirilishi kerak.

E'tibor berilsa, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar pedagogik, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarga ega. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha yoshdagi barcha bolalarni maktabgacha ta'lim jarayoni bilan qamrab olish ishlari amalga oshirilmogda. Bu jarayoni 2026-yil oxiriga qadar yakunlash belgilangan va shu sababli, bugungi kunda joylardagi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarni majburiy shaklda maktabga tayyorlash jarayonida ularning tarbiyasi amalga oshiriladi hamda yuqorida ta'kidlangan talablar asosida qisqa muddatda mazkur toifadagi bolalar tarbiya jarayoniga olib kiritiladi.

3-6 yoshli bolalarni ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyalash asoslari. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilari 3-6 yoshlar davrida tarbiyaning eng muhim turlari jarayoniga olib kiritiladi va ular asosida mazkur toifa bolalarning ma'naviy, axloqiy, estetik hamda jismoniy fazilatlarini, qobiliyatlari va ko'nikmalari dastlabki bosqichda shakllantiriladi. Shu jihatdan bolalarning muayyan tarbiya turlari bo'yicha tarbiyalash asoslari masalasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

1. *Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.* Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari ma'naviy-axloqiy jihatdan ilk tarzda tarbiyalanishi muhim hisoblanadi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish tavsiya etiladi:

- bolalarni ma'naviy tarbiyalash deganda ularning ma'naviy ongini, ruhiy kechimmalarini va axloqiy tarbiyalash deganda esa mazkur toifa bolalarining fazilalarini hamda sifatlarini shakllantirishga e'tibor berish;

- ushbu toifa bolalarni ma'naviy hayot (san'at olami, kitobxonlik muassasalari va madaniyat maskanlari) bilan tanishtirish vositasida ularning ma'naviy madaniyatini shakllantirish;

- bu toifa bolalarni axloqiy tarbiyalash bilan ularning axloqiy ongini, munosabatlari va faoliyatini dastlabki bosqichda tarkib toptirish.

Diqqat qilinsa, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ishi boshqa ta'lim bosqichlaridan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan farqlanadi.

2. *Estetik tarbiyalash.* Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini estetik tarbiyalashda quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- bolalarning estetik ongi, tushunchasi va didini shakllantirish;

- mazkur toifa bolalarda go'zallikni sevish va undan zavqlanish ko'nikmasini tarkib toptirish;

- bu toifa bolalarning badiiy-estetik layoqatini rivojlantirish ishini yo'lga qo'yish.

Demak, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini estetik tarbiyalashda eng asosiy e'tibor go'zallikni his etish, go'zallikdan zavqlanish va go'zallikka intilish ko'nikmalarini shakllantirishga amaliy e'tibor berilishi kerak bo'ladi.

3. *Jismoniy tarbiyalash.* Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini jismoniy tarbiyalashda ularning jismoniy o'sishi, rivojlanishi va jismoniy quvvatga ega bo'lishi masalalariga asosiy e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- bolalarning qo'l, oyoq va ko'krak qafaslari to'g'ri o'sishini ta'minlash;²¹

²¹ Qarang: Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Mualliflar jamoasi. - T.: "O'qituvchi", 1991.

- bolalarning jismoniy quvvatga to'g'ri ega bo'lishi va o'z jismoniy quvvatlaridan o'rinni foydalanishi ko'nikmasini shakllantirish;

- bolalarning yosh xususiyatiga mos jismoniy mehnat bilan shug'ullanishga o'rgatish.

E'tibor berilsa, bularga amal qilish maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini davlat ta'lim standartlari va makolalariga mos ravishda jismoniy tarbiyalashga erishiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan tarbiyalashda maktab jamoasi, jumladan, o'quv fanlari o'qituvchilari, jismoniy tarbiya o'qituvchisi hamda maktab psixologi bilan hamkorlik yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda mazkur toifa bolalarning jismoniy salomatligini saqlash, sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilish va jismoniy tarbiyalashda ilmiy-pedagogik asoslarga tayanish muhim ahamiyatga ega. Bu masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi lozim bo'ladi.

Maktabgacha ta'limda tarbiya samaradorligi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashda samaradorlik masalasiga e'tibor berish asosiy ahamiyatga ega. Chunki agar maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan to'g'ri tarbiyalash jarayoni to'g'ri yo'lga qo'yilsa, bu jarayon ta'limning keyingi bosqichlarida ham shunday davom etadi. Shu sababi ta'limning mazkur bosqichida bolalarning tarbiyalanganlik samaradorligini aniqlashda muayyan yondashuvlarga asoslanish lozim. Bunday yondashuvlarning eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

1) bolalarning ma'naviy ongi va axloqiy fazilatlari amaliy jihatdan shakllanganligini aniqlash;

2) bolalarning estetik ongi va estetik didi ko'nikmalari shakllanganligini aniqlash;

3) bolalarning yosh imkoniyatlariga mos ravishda jismoniy o'sganligi, o'g'irligining belgilangan me'yorlarda ekanligi va jismoniy xatti-harakat ko'nikmalari shakllanganligini aniqlash.

Bunday yondashuv mazkur toifa bolalarni tarbiyalash samaradorligi to'g'risida ma'lumot, tahlil va yo'naltirishlarga ega bo'lish imkoniyatlarini beradi.

Mazkur mezonlar asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining tarbiyalanganlik samaradorligini aniqlash uchun quyidagi metodlarga asoslanish kutilgan samarani beradi:

- subbat metodi;
- test metodi;
- monitoring metodi;
- mutaxassislar bilan hamkorlikda o'rganish metodi.

Bu metodlar bolalarning tarbiyalanganlik samaradorligini aniq namoyon qilishi pedagogik ilmiy-tadqiqotlar va tajribalari natijalaridan ma'lum. Misol uchun, subbat metodidan foydalanish bolalarning o'zidan tarbiyalanganlik darajasini to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim oluvchilarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabarlari tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Bunda asosiy maqsad mazkur toifa bolalarni tarbiyalashda nazariya va amaliyot uyg'unligiga qaratilishi kutilgan samarni beradi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi mavzular bo'yicha guruhlariga bo'linib subbat o'tkazing:

1. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar.
 2. 3-6 yoshli bolalarni ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyalash asoslari.
 3. Maktabgacha ta'limda tarbiya samaradorligi.
- Subbat natijalari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablarni o'zlashtiring.
2. 3-6 yoshli bolalarni ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyalash asoslarini konspekt qiling.
3. Maktabgacha ta'limda tarbiya samaradorligi bo'yicha chizma chizing.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Qodirova F. va boshq. Maktabgacha pedagogika. – T., 2019.
2. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Mualliflar jamoasi. – T., 1991.
3. Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T., 2009.

13-mavzu: Boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash

Reja:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash xususiyatlari va ularning mehnat tarbiyasi.
3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligi.

Tayanch tushunchalar: boshlang'ich ta'lim, ta'lim, sinf, o'quvchi, tarbiya, talab, ma'naviyat, axloq, estetik, bilim, mehnat, ko'nikma.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda bir qator talablarga asoslanish taqozo etiladi. Bunday talablar davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi" va Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqotlari natijasida shakllantiriladi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan eng asosiy talablar tahliliga e'tiborini bizni tortamiz.

1. *Ijtimoiy talablar.* Bugungi jamiyatimizda axloqli va ijtimoiy faol ko'nikmalarga ega yosh avlodga bo'lgan ijtimoiy talablar belgilangan. Bunday talablarning asosiy quriladigilardan iborat:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiylashtirish, ularning ijtimoiy ongini shakllantirish va ularni ijtimoiy munosabatlarga tarbiya jarayonida o'rganish;

- tarbiya vositasida mazkur toifa o'quvchilarning ongi va axloqida yangi milliy e'oyamizning insonparvarlik, e'zgulik hamda bunyodkorlik e'oyalarini shakllantirish;

- bu toifa o'quvchilarda tarbiya vositasida yangi milliy g'oyamizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga uyg'un sodiqlik ko'nikmasini tarkib toptirish;

- ushbu toifa o'quvchilarni ijtimoiy faollikka va tarbiya vositasida o'zlashtirgan fazilatlarda hamda ko'nikmalarga amal qilishga odatlantirish.

Bu talablar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan ijtimoiy ehtiyojlar amalga oshiriladi.

2. *Pedagogik talablar.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda bir necha talablarga amal qilish taqozo etiladi. Bunday talablarning asosiy lari quyidagilardir:

- tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh, aqliy, jismoniy, ruhiy va estetik xususiyatlarini qat'iy hisobga olish;

- tarbiya vositasida bu toifa o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichlari va hayotiy faoliyatga kutilgan darajada tayyorlash;

- mazkur toifa o'quvchilarini tarbiyalashda eng maqbul metodlar, vositalar va texnologiyalarga tayanish;

- tanlangan metodlar, vositalar va texnologiyalarning estetika hamda dizayn talablariga mos bo'lishi.

Bularning barchasi boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda mazkur pedagogik talablarga qat'iy amal qilishni taqozo etadi.

3. *Texnologik talablar.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash ishida bugungi ehtiyojlardan kelib chiqqan holda texnologik talablarga ham amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday talablarning asosiy lari sifatida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini mobil aloqa vositasi, kompyuter, televideniye kabi axborot-kommunikatsion vositalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish;

- bu toifa o'quvchilarda axborot-kommunikatsion vositalari orqali ma'lumotlar olish va axborotlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

- ushbu toifa o'quvchilarini axborot-kommunikatsion vositalardan estetik va madaniyatilik asosida foydalanishga odatlantirish;

- mazkur toifa o'quvchilarini axborot-kommunikatsiya vositalari orqali kashfiyotlar qilishga yo'naltirish.

Diqqat qilinsa, bu texnologik talablar boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash ishida amaliy samaradorlikka erishish uchun asos bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashning mazkur talablari quyidagilar bilan belgilanadi:

- jamiyatimizning innovatsion tarzda rivojlanib borayotganligi va jahon hamjamiyati bilan hamkorligi, bunda bolalarni ijtimoiy, pedagogik va texnologik jihatdan tarbiyalash zaruriyat ekanligi ma'lum bo'ladi;

- ijtimoiy tarbiya vositasida 7-11 yoshli bolalar ijtimoiylashtiriladi, pedagogik tarbiya vositasida ular madaniylashtiriladi va texnologik tarbiya vositasida mazkur toifa bolalar faoliyatiga tayyorlanadi;

- bolalarni ijtimoiy, pedagogik va texnologik jihatdan tarbiyalash o'zining nazariy va tarixiy xususiyatlariga ega. Misol uchun, Yevropa mamlakatlarida keyingi yuz yil davomida bolalar tarbiyasida texnologik talablarga ustuvor ahamiyat berib kelindi va bugungi kunda bolalarda bir tomonlama texnokratik fikrlash tarkib topganligi ma'lum bo'ladi. Shu sababli keyingi besh yil davomida Yevropa mamlakatlari ta'lim tizimida bolalarni ijtimoiy va pedagogik jihatdan tarbiyalash jarayoniga qaytilganini eslatib o'tish joiz. Shu sababli 3-11 yoshli bolalar tarbiyasida ijtimoiy, pedagogik va texnologik talablarni uyg'unlashtirgan holda faoliyatida bo'lish kutilgan samarani beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash xususiyatlari va ularning mehnat tarbiyasi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash jarayonida muayyan tarbiya turlari bo'yicha ishlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor bering:

1. *Jismoniy tarbiyalash.* Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada amalga oshirilgan tarbiya jarayoni davomi sifatida tarbiyalanadi. Shu jihatdan ularni jismoniy tarbiyalashda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi:

- bolalarda shakllangan jismoniy o'sish, jismoniy quvvatga to'lish va jismoniy xatti-harakatlar ko'nikmalarini 3-11 yoshli o'quvchilar xususiyatlariga mos ravishda rivojlantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy mehnat va jismoniy madaniyat bo'yicha ko'nikmalarini kengaytirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda ijodiy va mustaqil jismoniy xatti-harakat qilish, jismoniy mehnat talab qiladigan mahsulotlarni yasashga o'rgatish.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyalash rivojlantirish, kengaytirish va o'rgatish tamoyillariga asoslanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiyalashda jismoniy tarbiya o'quv fani imkoniyatlaridan oqilona foydalanish lozim bo'ladi. Buning uchun o'quv fanining mavzulari ko'proq sport maydonlarida o'tkazilsa, amaliy samarani beradi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasi uchun zarur bo'lgan vujudning sog'lom o'sishi, sanitariya-gigiyena qoidalarini o'rganishi va mazkur ko'nikmalarga ega bo'lishida o'quv fani asosiy vazifani bajaradi. Shuningdek, jismoniy tarbiya o'quv fanini o'qitishda har bir mavzu bo'yicha yangicha yondashish taqozo etiladi. Misol uchun, Osiyo va Jahon chempionligiga sazovor bo'lgan yoshlar to'g'risida muntazam ma'lumot berib borish boshlang'ich sinf o'quvchilariga motivatsiya beradi.

2. *Ma'naviy-axloqiy tarbiyalash.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida sabr-toqat, ruhiy tetiklik va ma'naviy ta'sirchanlik tuyg'ularini shakllantirish bilan ularning ma'naviy olamini tarkib toptirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehribonlik, insonparvarlik, Vatanni sevisht, g'urur kabi fazilatlarini shakllantirish bilan ularning axloqiy ongi va munosabatini rivojlantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuksak ma'naviyatlik va axloqiylik madaniyati poydevorini yaratish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan amaliy tarbiyalash imkoniyatlarini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Ona tili va o'qish o'quv fanining hamda Tarbiya fanining imkoniyatlarini e'tiborga o'tish joiz. Mazkur fanlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish kutilgan samarani beradi:

- Ona tiliga muhabbat, ona tili vositasida o'zga tillarni o'rganish va ona tili asosida bolalarda milliy ruhni paydo qilish;
- O'qish o'quv materiallari vositasida o'quvchilarida vatanparvarlik, tabiatga muhabbat, hayvonot va o'simlik dunyosini qadrlash, Vatanning tabiatini asrash kabi ko'nikmalarni shakllantirish;

- Tarbiya o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida eng e'zgu insoniy sifatlarni shakllantirish, ularni milliy g'oya asosida tarbiyalash va o'quvchilarning tarbiyaviy ko'nikmalarini rivojlantirib borish.

Bunday yondashuv bilan mazkur o'quv fanlarining imkoniyatlaridan foydalangan holda, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligiga erishish mumkin.

3. *Estetik tarbiyalash.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik-badiiy ongi va xatti-harakatlarini shakllantirish bilan ularni estetik madaniyat olamiga olib kirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida go'zallikni qadrlash, go'zallikka intilish va go'zallikdan zavqlanish fazilatlarini rivojlantirish bilan ularning estetik faolligini tarkib toptirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida dastlabki bosqichda estetik madaniyat va estetik faollikni rivojlantirish bilan ularning badiiy-estetik va ijodiy layoqatlarini rivojlantirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashning amaliy va kutilgan samarasini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashda Tasviriy san'at va Musiqi madaniyati o'quv fanlarining muhim ahamiyati mavjud. Mazkur fanlar vositasida o'quvchilarida quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish samarali hisoblanadi:

- o'quvchilarning inson va tabiat go'zalligidan zavqlanish, go'zallikka rioya qilish va uni his etish, tasviriy san'at asarlari vositasida o'quvchilarning badiiy idroki va his-tuyg'ularini rivojlantirish;

- bolalar musiqasi, go'shiqlari va raqslari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqiy-estetik didini o'stirish, ularda milliy musiqi san'atiga muhabbat uyg'otish va milliy musiqi san'ati vositasida jahon xalqlari musiqi san'atini anglash ko'nikmasini shakllantirish;

- bolalarning tasviriy san'at va musiqiy layoqatlarini rivojlantirish bilan ularda ijodkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish, bu ko'nikma vositasida bolalarda ijoddan zavqlanish tuyg'usini hosil qilish;

- milliy musiqi san'atimiz va tasviriy san'at asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zamtlik, ijodiylik hamda ruhiy tetiklik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Tasviriy san'at va Musiqqa madaniyati o'quv fanlarining bunday imkoniyatlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda muhim amaliy negizlar hisoblanadi.

4. *Mehnat tarbiyasi.* Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat tarbiyasi butunlay yangicha asoslarga tayamishi kerak. Chunki tarbiyaning bu turi vositasida 3-11 yoshli o'quvchilar ijtimoiy hayotga olib kiriladi. Shu jihatdan mazkur tarbiya turini amalga oshirishda quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnat ko'nikmasi, mehnatsevarlik fazilatlari va mehnat natijasidan zavqlanish fazilatlari shakllantirish bilan ularning mehnat qilish va uning vositasida hayot kechirish ko'nikmalarini shakllantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil mehnat qilish, o'z mehnati bilan turli jihozlar, ishlamalar yaratish va mehnatining hosilasidan bahramand bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish bilan ularni mehnat jarayoniga tayyorlash;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy mehnat, ijodiy mehnat va aqliy mehnat tushunchalari bo'yicha ko'nikmalarni tarkib toptirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatsevarlik ko'nikmasini rivojlantirish va ularni mehnat faoliyatiga tayyorlash imkoniyatlarini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat tarbiyasida Texnologiya o'quv fanining imkoniyatlari kengligini eslatib o'tish joiz. Bu fan vositasida o'quvchilarida quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish kutilgan samarani beradi:

- mustaqil mehnat qilish va o'z mehnati samarasidan zavqlanish;
- mehnat vositasida omadga erishish mumkinligi va faqat mehnatgina insonni baxtli qilishi;

- o'quvchilarni o'z yosh xususiyatlariga mos ravishda turli jihozlar yasash, ularni bo'yash va estetik jihatdan zavqli chiqishiga o'rgatish;

- o'quvchilarida o'zi tayyorlagan mehnat mahsulotlari bilan zavqlanish va g'ururlanish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Ta'kidlash joizki, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlaridan eng qiziqarlisi Texnologiya, Tasviriy san'at va Musiqqa madaniyati fanlaridir. Chunki bu o'quv fanlarining negizida bolalarni ijodkorlikka o'rgatishdek

muhim mazmun mavjud. Inson o'z faoliyati davomida aynan ijod vositasida o'zligini anglaydi, namoyon qiladi va o'zgaralarga foydasi tegadi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik va mehnat jihatidan tarbiyalashda Tabiiy o'quv fanlari tarkibi ham muhim o'rin tutadi. Misol uchun, Tabiatshunoslik o'quv fani vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ong, tabiatni muhofaza qilish va asrash, tabiatdan zavqlanish kabi ko'nikmalarni shakllantirish kutilgan samarani beradi. Chunki ta'kidlangan tarbiya turlari barcha o'quv fanlarining imkoniyatlaridan foydalanib, amalga oshirilishi taqozo etiladi. Unutmastik lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchisi nima taqdim etilsa, uni qabul qiladi. Shu jihatdan mazkur toifa o'quvchilarining tarbiyasi nisbatan yengil kechishini ta'kidlash lozim. Bularning barchasini oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabarlari tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi. Zero, boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik va mehnat jihatidan tarbiyalash o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni tarbiyalash samaradorligiga erishish bir necha omillarga bog'liq bo'ladi. Bunday omillarning asosiy sifatlari quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy, jismoniy, estetik va mehnat fazilatlari hamda ko'nikmalarini talab darajasida shakllantirishga erishish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy, axloqiy, jismoniy, estetik va mehnatsevarlik jihatlaridan rivojlantirish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy, axloqiy, jismoniy, estetik va mehnatsevarlik jihatidan faol voyaga yetishini ta'minlash.

Mazkur omillar boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyalanganlik darajasini aniqlash uchun monitoring, og'zaki va yozma topshiriqlarni bajarish kabi metodlardan foydalanish kutilgan samarani beradi. Shuni ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya olamiga olib kirish va ularda tarbiyalanganlik ko'nikmalarini shakllantirish bilan ta'limning keyingi bosqichlari uchun

zamin hozirlanadi. Hozirgi zamon "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyalanganlik samaradorligiga amaliy jihatdan erishish masalasi birlamchi hisoblanadi. Shu sababli ular oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

Shunday qilib, oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalari boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalashning talablari, asoslari va unda samaradorlikka erishish omillari bo'yicha nazariy hamda amaliy malakalarni egallashi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi mavzularda guruhlariga bo'linib trening o'tkazing:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar.
 2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash xususiyatlari va ularning mehnat tarbiyasi.
 3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligi.
- Trening natijalari o'qituvchi tomonidan baholalanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablarni o'zlashtiring.
2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash xususiyatlari va ularning mehnat tarbiyasi asoslarini konspekt qiling.
3. Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligi omillarini o'rganing.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. – T., 2020.
2. Jabborova O.M., Umarova Z.A., Boboxodjayeva L.M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – T., 2021.
3. Umarova Z. Boshlang'ich sinflarda pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi. – T., 2021.

14-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sensor tarbiyasi

Reja:

1. Sensor tarbiya tushunchasi.
2. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sezgi va idrokini rivojlantirish asoslari.
3. Sensor tarbiya metodlari.
4. Sensor tarbiyaning samaradorligi.

Tayyanch tushunchalar: ta'lim, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, sensor tarbiya, tushuncha, asos, metod, samaradorlik, ko'nikma.

Sensor tarbiya tushunchasi. O'zbekiston maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning shaxsiy va umumiy huquqlarini ta'minlash masalasida xalqaro ta'lim huquqlariga amal qilib kelmogda. Shu jihatdan bu toifa ta'lim oluvchilarining sensor tarbiyasi ham pedagogik va huquqiy jihatdan muhim amaliy masalalardan hisoblanadi.

"Sensor" tushunchasi lotincha bo'lib, "yordam beraman", "birgalikda ishlaymiz" ma'nosini anglatadi. Bunda, asosan, jismoniy va aqliy imkoniyatlari cheklangan ta'lim oluvchilar tarbiyalanadi. Shu jihatdan pedagog olimlar sensor tarbiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishadi: sensor tarbiya – bu bilishning dastlabki bosqichlari sezgi va idrok etish jarayonlari bilan ta'minlanib, tasavvurlarning xususiyatlari, ularning aniq ravshanligi va to'raligiga asoslangan tarbiya jarayonidir.²² Shu jihatdan sensor tarbiyada quyidagi ikki masala muhim o'rin tutadi:

- 1) tarbiyalanuvchining sezgisi vositasida unga tarbiya berish;
- 2) tarbiyalanuvchining idrok ko'nikmasi orqali uni tarbiyalash va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash.

Bunday yondashuv sensor tarbiya asosini tashkil etadi. Sensor tarbiya bo'yicha YUNESKO tan olgan A.P. Usovanning ta'kidlashicha, maktabgacha

²² Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Myalliflar jamoasi. – T.: "O'qituvchi". 1991. 108-bet.

yoshdagi va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar to'plagan aqliy boylikning o'ndan to'qqiz qismini hissiyot orqali qabul qiladi.²³ Demak, hissiyot vositasida sezgi va idrok rivojlanadi, buning natijasida sensor tarbiyani amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Sensor tarbiyaning tarkibiy qismlari quyidagilardir:

- nutqni o'stirish;
- mantiqiy fikrlashni tarkib toptirish;
- hissiyot vositasida ijod qilish ko'nikmasini shakllantirish.

Shu sababli sensor tarbiya o'zga turdagi tarbiyalarning negizlaridan birini tashkil etadi. Pedagogika fanida "sensor tarbiya" deganda hissiy bilish usullarini shakllantirishga, sezgi va idrok etishni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta'sir ko'rsatish tizimi tushuniladi. Shu ma'noda jismoniy va aqliy imkoniyatlari cheklangan tarbiyalanuvchilarning his-tuyg'ulari, sezgi va idrok etish xususiyatlariga ta'sir etish bilan ular tarbiyalanadi. YUNESKO tomonidan tan olingan xalqaro miqyosdagi psixolog olim B.G. Ananeyevning fikricha, hissiyot, sezgi va idrok shaxsning aql tuyg'usini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omillardir. Shu sababli sensor tarbiya oluvchilar to'laqonli shaxslar qatorida jamiyat faoliyatida ishtirok etadi va o'zgalar kabi to'laqonli hayot kechiradi.

Sensor tarbiya tushunchasining bu mazmunlari oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabarlari tomonidan to'liq o'zlashtirilishi, amaliyot davrida mazkur tushunchaning xususiyatlarini sinovdan o'tkazishi taqozo etiladi. Chunki sensor tarbiya vositasida jamiyatda barcha shaxslarning tarbiya olishi, tarbiyalanishi va tarbiya ishi bilan shug'ullanishi kabi masalalar hal etiladi. Sensor tarbiyani amalga oshirgan mamlakat ta'lim tizimi xalqaro miqyosda e'tirof etiladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sezgi va idrokini rivojlantirish asoslari. Mamlakatimizda sensor tarbiya asoslarini ta'limga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar va pedagogik-ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Mazkur asoslarga tayangan holda sensor tarbiyaning bir nechta qoidalari shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor bering:

birinchi qoida: sezgi va idrok predmetini, uning xususiyatlarini tadqiq etishga qaratilgan omillardir;

ikkinchi qoida: bolada idrok etishni rivojlantirish sensor tarbiyaning natijasi hisoblanadi.

Shu jihatdan mazkur qoidalarga amal qilish maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sezgi hamda idrokini rivojlantirish asoslariga rioya qilish hisoblanadi. Mazkur qoidalar asosida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sezgi va idrokini rivojlantirishda quyidagi davrlarga e'tibor berish kutilgan samarani beradi:

birinchi davr – 3-6 yoshli bolalarning sezgi va idroki ularning jismoniy hamda aqliy imkoniyatlariga asosan shakllantiriladi;

ikkinchi davr – 7-11 yoshli bolalarning sezgi va idroki ularning jismoniy, aqliy va estetik imkoniyatlariga tayangan holda rivojlantiriladi.

Bu ikki davrda bolalarning sensor tarbiyasi mantiqiy bog'liqlik, uzviylik va bir-birini to'ldiruvchi tamoyillar asosida amalga oshiriladi. Aks holda, sensor tarbiyada bolalarning sezgi va idrokini kutilgan darajada rivojlantirish hamda ular asosida tarbiya berish samara bermaydi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida sensor tarbiya vositasida bolalarning sezgi va idrokini yuksak darajada rivojlantirish asoslari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun Pedagogika va Psixologiya fanlarining o'zaro bog'liqligi asosida laboratoriya ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dunyo mamlakatlari oliy pedagogik ta'lim tajribasi shuni ko'rsatadiki, sensor tarbiyani amalga oshirishda sezgi va idrokni rivojlantirish asoslari laboratoriya tajribalari asosida bo'lajak o'qituvchilarga tushuntiriladi. Shu sababli mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalaridagi mavjud laboratoriyalardan oqilona foydalanib, bo'lajak o'qituvchilarga sezgi va idrokni rivojlantirish tajribalari hamda ko'nikmalarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, bu jarayonda pedagog mutaxassis sensor tarbiyaning huquqiy-tarbiyaviy qonuniyatlari bo'yicha mas'ul hisoblanadi, psixolog mutaxassis esa sezgi va idrokni rivojlantirish tajribalarini amalga oshirish asoslari bo'yicha mas'ullik vazifasini bajaradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, sensor tarbiyani amalga oshirishda asos bo'luvchi tarbiyalanuvchining sezgi va idrokini rivojlantirish hamda u asosida mazkur tarbiya jarayonini amalga

²³ Shu manba. 109-bet.

o'shish uchun pedagog hamda psixolog hamkorligida bo'lajak o'qituvchilarga ko'nikma berilishi kerak. Bugungi kunga qadar pedagogikamiz tajribasida sensor tarbiya asoslari bo'yicha nazariy bilim berib kelinayotganligi sir emas. Bundan keyin nazariya va amaliyot uyg'unligi asosida bo'lajak o'qituvchilarga sensor tarbiya vositasida tarbiyalanuvchilarning sezgi va idrokini shakllantirish bo'yicha ko'nikma berilishi taqozo etiladi.

Sezgi va idrok bo'yicha aniq tasavvur, tushuncha, bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan o'qituvchi o'z tajribasini boshqa tarbiya turlarini amalga oshirishda ham qo'llaydi. Natijada tarbiyalanuvchilarning tarbiya turlari bo'yicha tarbiyalanish jarayoni kuchayadi va amaliy xususiyat kasb etadi. Negaki har bir insonning tabiatiga sezgi va idrok xos bo'lgan xususiyatdir. Shu jihatdan sensor tarbiya asoslarini tarbiyaning aqliy, axloqiy va estetik turlariga tadbir etish samarali hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha keyingi paytlarda dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida o'ziga xos tadbirlar olib borilayotganligini eslatib o'tish joiz.

Bunda mashhur psixolog olim B.G. Anan'ev tadbirlari bilan tanishish maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalariga tavsiya etiladi.²⁴

Sensor tarbiya metodlari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sensor tarbiyasini amalga oshirishda bir necha metodlarga asoslanish taqozo etiladi. Bunday metodlarning asosiy qaydagi:

1. *Tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlariga ko'ra guruhlash metodi.* Bunda quyidagicha yondashish tavsiya etiladi:

- 3-6 yoshli maktabgacha tarbiyalanuvchilarni maxsus pedagogik va psixologik vositalar asosida tarbiyalash;
- 3-11 yoshli o'quvchilarni ularning yosh, jismoniy, aqliy va estetik imkoniyatlariga mos ravishda tarbiyalash.

E'tibor berilsa, bunday yondashuv tarbiya jarayonining samarali kechishini ta'minlaydi va tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlariga mos tushadi.

2. *Tarbiyalanuvchilarning sensor tarbiya vositasida majmu (kompleks) tarbiyalash metodi.* Bu metodga ko'ra sensor tarbiya oluvchilar quyidagi jihatdan uyg'un tarbiyalanishi kerak:

²⁴ Qat'ing: Ананьев Б.Г. Психология чувственного познания. — М., 1960. — С. 50-51.

- tarbiyalanuvchilarni aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi jihatidan majmu tarbiyalash;

- tarbiyalanuvchilarda hayotga muhabbat, yashashga ishtiyoq va kasbiy faoliyatga layoqat ko'nikmalarini shakllantirish.

Diqqat qilinsa, bu metod sensor tarbiyaning amaliy samaradorligini ta'minlovchi muhim vositalardan biridir.

3. *Sensor tarbiya bilan shug'ullanuvchining individual metodi.* Mazkur metodga ko'ra, sensor tarbiya bilan shug'ullanuvchi quyidagilarga qat'iy e'tibor berishi taqozo etiladi:

- oliy pedagogik ta'lim jarayonida sensor tarbiyaning nazariy, metodologik va amaliy asoslarini chuqur o'zlashtirish;
- amaliy faoliyat davomida sensor tarbiya bo'yicha o'zining individual metodini kashf etish.

Bunday yondashuv sensor tarbiya bilan shug'ullanuvchilar faoliyatida samaradorlik, kasbiy faollik va amaliy natijadorlikka asos bo'ladi.

4. *Zamonaviy metodlar.* Bu yondashuvga ko'ra bo'lajak o'qituvchilar oliy pedagogika ta'lim jarayonida va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar esa malaka oshirish kurslari asosida sensor tarbiya bo'yicha zamonaviy metodlarni o'zlashtirib borishi taqozo etiladi. Bugungi kunda sensor tarbiyaning quyidagi zamonaviy metodlari idrok etilayotganligini eslatib o'tish joiz:

- sensor tarbiyaning masofaviy ta'lim metodi;
- sensor tarbiyaning kompyuter o'quv-texnik vositasiga asoslangan onlayn metodi;
- sensor tarbiya bo'yicha tajribali o'qituvchilarning yillar davomida shakllangan individual metodi;
- sensor tarbiyaning axborot-kommunikatsion vositalar imkoniyatiga tayangan informatsion metodi;
- sensor tarbiyaning hududlarda tarkib topgan va samarali hisoblangan hududiy metodlari.

Mazkur sensor tarbiyaning zamonaviy metodlarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalarining chuqur o'zlashtirishi tavsiya etiladi. Buning uchun sensor tarbiyaning mazkur zamonaviy metodlari bo'yicha nazariy va metodologik ishlabmamar yaratish taqozo etiladi.

Sensor tarbiyaning samaradorligi. Maktabgacha va boshlang'ich tarbiyalanuvchilarning sensor tarbiyasida samaradorlikka erishish bu jarayonning eng asosiy maqsadi va vazifasi hisoblanadi. Shu sababli sensor tarbiyaning samaradorligi quyidagi mezonlar asosida aniqlanishini eslatib o'tish joiz:

- sensor tarbiya oluvchilarda hissiyot, sezgi va idrokning kutilgan darajada shakllanganligi;
- sensor tarbiya oluvchilarda hayotiy va ijtimoiy faollikning tarkib topganligi;
- sensor tarbiya jarayonida amal qilingan metodlar va texnologiyalarning samara berganligi;
- sensor tarbiya natijasida shaxsning ta'lim va tarbiya olish huquqi ta'minlanganligi.

Mazkur mezonlar asosida sensor tarbiyaning samaradorligi aniqlanadi va baholalanadi.

Sensor tarbiyaning samaradorlik darajasi mazkur tarbiya jarayonini amalga oshirgan o'qituvchi tomonidan emas, balki jamoa tomonidan amalga oshirilishini ta'kidlab o'tish lozim. Shu jihatdan sensor tarbiyaning samaradorligini aniqlovchi jamoa quyidagilarga asosan shakllantiriladi:

- maktab jamoasi vakili, amaliyotchi psixolog va sensor tarbiya bo'yicha ilmiy mutaxassisning jamoaga kiritilishi;
- sensor tarbiya natijasining samaradorligini aniqlash bo'yicha maktab pedagog kengashining qarori bo'lishi;
- sensor tarbiya samaradorligini choraklar kesimida o'rganib borish rejasining mavjudligi;
- sensor tarbiya samaradorligi natijalari asosida bunday tarbiyaning keyingi bosqichda amalga oshiriladigan tadbirlarining ishlab chiqilishi.

Umuman, sensor tarbiyaning amaliy samaradorligiga erishish maktab jamoasi, joylarda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar va ilmiy-o'quv markazlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sensor tarbiyasi shaxsning ta'lim va tarbiya olish huquqini ta'minlovchi, pedagogik jarayonning amaliy samaradorligini beruvchi va psixologik faoliyatning ko'rsatkichlarini ta'minlovchi jarayon hisoblanadi. Bunda mutaxassislarining keng hankorligi, ilmiy asoslangan metodlarga tayanish

lozimligi va sensor tarbiyaning kutilgan samarasiga erishish muhim o'rinni tutadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida sensor tarbiyaning asoslari bo'lajak o'qituvchilar tomonidan kutilgan darajada o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi mavzular bo'yicha guruhlariga bo'linib bahs-munozara yuritilg:

1. Sensor tarbiya tushunchasi va uning mazmuni.
2. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sezgi va idrokini rivojlantirish asoslari.
3. Sensor tarbiya metodlari.
4. Sensor tarbiyaning samaradorligi asoslari.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Sensor tarbiya tushunchasi va uning mazmunini o'zlashtiring.
2. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sezgi va idrokini rivojlantirish asoslarini konspekt qiling.
3. Sensor tarbiya metodlarini o'rganing.
4. Sensor tarbiya samaradorligi bo'yicha amaliyot davrida kuzatuv olib boring.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. – T., 2020.
2. Jabborova O.M., Umarova Z.A., Boboxodjayeva L.M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – T., 2021.
3. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Mualliflar jamoasi. – T., 1991.

15-mavzu: Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari

Reja:

1. Tarbiyalanganlik darajasini baholash asoslari.
2. Baholash indikatorlari.
3. Tarbiya asoslarini o'zlashtirganlikni rag'batlantirish.
4. Tarbiyalanganlikning samaradorligi.

Tayanch tushunchalar. maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, ta'lim, tarbiyalanganlik, daraja, baholash, indikator, bilim, ko'nikma, malaka.

"Bolalar pedagogikasi" o'quv fanida eng asosiy masalalardan biri maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarda tarbiyalanganlik darajasini baholashdir. Pedagogika tarixi va tajribasida tarbiyalanganlik darajasini baholashning bir necha shakllari amalda qo'llanib kelingan. Bunday shakllarning asosiy tarbiyalanuvchilarda fazilatlarning tarkib topganligiga qarab baholash, tarbiyalanuvchilarning axloqiy faolligiga qarab baholash va tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini o'zlashtirganligiga qarab baholash shakli etadi. Shu jihatdan shaxsning tarbiyalanganlik darajasini baholash muayyan shart-sharoitlar va ehtiyojlar omilidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalanganlik darajasini baholashda an'anaviylik hamda no'an'anaviylikning uyg'unligiga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, demokratik jamiyat sharoitida tarbiyalanuvchilarning axloqiy fazilatlarini kutilgan darajada o'zlashtirishi murakkab kechadi va bu hol ta'lim beruvchi hamda tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning demokratik xarakterda ekanligi bilan belgilanadi. Masalan, har qanday holatlarda tarbiyalanuvchilarning haq-huquqlari ustuvor bo'lishi ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Shu sababli tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholashda nisbatan tamoyilga asoslaniladi. Unga ko'ra, muayyan tarbiyalanuvchi yoki tarbiyalanuvchilar guruhida axloqiy fazilatlarning o'zlashtiril-

ganligi, axloqiy faollikning tarkib topganligi va tarbiya jarayonining samara berganligi nisbatan baholanadi. Bunda asosiy e'tibor guruhda tarkib topgan tarbiyaviy ko'nikmalarining darajasiga qaratiladi.

"Bolalar pedagogikasi" o'quv fanida tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholashda eng muhim indikatorlarga asoslaniladi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shunday indikatorlarning eng asosiy tahliliga to'rtamiz.

Tarbiyalanganlik darajasini baholash asoslari. Mamlakatimiz maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida tarbiya oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini amaliy jihatdan o'rganib borish va baholash jarayoni kechmoqda. Shu sababli mazkur toifa ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash va u asosda tarbiya jarayonini takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash asoslari bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida nazariy hamda amaliy ko'nikmalar olish taqozo etiladi. Bunday baholashning quyidagi asoslari mavjud.

- ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar (O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Milliy malakalar ramkasi, davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlari va hokazo);

- ta'limga oid xalqaro baholash dasturlari (TIMSS, PISA, PIRLS va STEAM);

- ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda ishlab chiqilgan metodologik tavsiyalar;

- muntazam ravishda monitoring qilib boruvchi rejalar.

Mazkur asoslarga tayangan holda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash amalga oshiriladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida ta'kidlangan asoslarni chuqur o'zlashtirish va amaliyot davrida o'zlashtirganlarni tajriba qilib ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholashda klaster tizimidan foydalanish muhim asoslardan biridir. Chunki bu tizimda pedagog va mutaxassislarining keng hamkorligi asosida baholash jarayoni amalga oshiriladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini

baholab borish keyingi yillarda qaytadan tiklandi. Bunda *baholash* deganda, bolalarning tarbiya masalasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Shu sababli mazkur masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida kutilgan darajada o'zlashtirilishi tavsiya etiladi.

Baholash indikatorlari. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari yangidan idrok etilmoqda. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlar, tajribalar va amaliy sinovlardan kelib chiqib, bunday indikatorlarning asosiy lari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash bo'yicha qo'yilgan maqsad hamda vazifalarning amalga oshganligi;

2) bu toifa tarbiyalanuvchilarning ongi, axloqi, xatti-harakati va munosabatlarida tarbiyaviy-ijobiy ko'nikmalarning tarkib topganligi;

3) mazkur toifa tarbiyalanuvchilarning shaxsiy va ijtimoiy faolligi oshganligi;

4) bu toifa tarbiyalanuvchilarda tarbiya masalasiga ijobiy, mustaqil va tashabbus bilan munosabatlarda bo'lish ko'nikmasining tarkib topganligi;

5) maktab miqyosida ushbu toifa tarbiyalanuvchilarning axloq va munosabat jihatidan namuna bo'lishi.

Bu indikatorlarga asosan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash kutilgan samarani beradi. Ayni paytda, mazkur jarayonni baholashda quyidagi xalqaro baholash dasturlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- TIMSS – bu xalqaro dasturga asosan o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasining shakllanganligi tarbiyaning samarasi sifatida baholanadi;

- PISA – mazkur xalqaro dasturga asosan o'quvchilarning matematik tafakkuri rivojlanganligi tarbiyaning natijasi sifatida baholanadi;

- PIRLS – ushbu xalqaro dasturga asosan o'quvchilarning o'qib tushinish ko'nikmasi tarkib topganligi tarbiyaning samarasi sifatida baholanadi;

- STEAM – mazkur xalqaro dasturga asosan o'quvchilarda matematik tafakkur va san'at bo'yicha ko'nikmaning uyg'un tarkib topganligi tarbiyaning natijasi sifatida baholanadi.

E'tibor berilsa, mazkur xalqaro ta'lim baholash dasturlari asosida bolalarning tarbiyalanganlik darajasini baholash muhim indikatorlarni hamda amaliy samaralarni beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida

maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tili (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi talabalariga ushbu xalqaro ta'lim dasturlarini chuqur o'zlashtirish va o'rganish tavsiya etiladi.

Tarbiya asoslarini o'zlashtirganlikni rag'batlantirish. Jahon pedagogika tajribasida va ta'lim-tarbiyaning amaliyotida keyingi paytlarda bolalarni o'zlashtirganlik darajasini rag'batlantirish amaliyotiga kiritildi. Unga ko'ra, har bir ta'lim oluvchi o'quv dasturlari asosida taqdim etilgan bilim, ko'nikma va malakani kutilgan darajada o'zlashtirganligi uchun rag'batlantiriladi. Shu jihatdan tarbiya asoslarini kutilgan darajada o'zlashtirgan maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilar rag'batlantirib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, keyingi paytlarda bolalarni o'zlashtirganlik uchun rag'batlantirish metodidan foydalanish susaygan. Aslida rag'batlantirish bolada ishtiroq, qiziqish va faollik uyg'otishini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan, mazkur "Bolalar pedagogikasi" o'quv fanida o'zlashtirganlik uchun rag'batlantirish metodidan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiyalanganlik asoslarini o'zlashtirganlik uchun bolalarni rag'batlantirishning vositalari juda ko'p. Bu o'rinda ularning eng muhim no'anaviy va an'anaviy shakllarini eslatib o'tish joiz:

- maqtash;
- namuna sifatida ko'rsatish;
- ota-onasiga rahmatnoma yuborish;
- o'quvchilar yig'ilishlarida bolalarning ismi-shariflarini o'qib eshittirish;
- maktab Pedagogik kengashining bolaga nisbatan minnaldorchiilik maktubini taqdim etish;
- bolalar kitoblari sovg'a qilish;
- o'quvchilarning nasr etiladigan ilmiy ishlarida faol o'quvchilarning ismi sharifi qayd etilishi va h.k.

Rag'batlantirishning bu asoslari e'tibor berilsa, bolalarni ta'lim va tarbiya jihatidan faollashtiradi. Shu sababli tarbiyalanganlik asoslarini o'zlashtirgan bolalar muntazam ravishda rag'batlantirib borilishi mazkur fanning eng muhim vazifalaridan biridir.

Tarbiyalanganlik asoslarini o'zlashtirganligi uchun maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning rag'batlantirishi bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, ba'zida ta'lim muassasasining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan planshet, kompyuter kabi o'quv-texnik jihozlar bilan rag'batlantiriladi. Buning natijasida imkoniyati cheklangan oilalarning ta'lim va tarbiya faoliyati kuchaytiriladi. Shu sababli mazkur masala mamlakatimizda amal qilishi kutilgan amaliy samarani beradi.

Umuman Pedagogika fani tarixi va tajribasi shuni ko'rsatadiki, shaxsning o'zlashtirganlik uchun rag'batlantirishi ta'lim va tarbiya jarayonining imkoniyatlarini kengaytirib kelgan. Shu sababli mazkur masalada pedagoglarning fikri yakdill ekanligini eslatib o'tish joiz.

Tarbiyalanganlikning samaradorligi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik samaradorligini o'rganib borish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki tarbiyaning asosini pedagogik va amaliy samaradorlik tashkil etishini ta'kidlab o'tish joiz. Shu jihatdan bolalarning tarbiyalanganlik samaradorligi quyidagilar asosida aniqlanadi:

- bola shaxsida aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnat va ijtimoiy tarbiya turlarining mavjudligi;

- bolaning jamoaparvarlik ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- bolaning salbiy xususiyatlar va xatti-harakatlardan o'zini tiya olishi;
- bolaning salbiy voqea va hodisalardan o'zini tortishi;
- bola shaxsida salbiy illatlarning minimal darajada kamligi;
- bolaning ijtimoiy faolligi, quvvatligi va sho'xligi;
- bolaning o'zgaralarga nisbatan mehribonligi.

Mazkur asoslarga ko'ra, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik samaradorligi aniqlanadi va baholanadi.

Jahon pedagogikasi tajribasini kuzatish shuni ko'rsatadiki, bolaning tarbiyalanganlik samaradorligini aniqlashda va baholashda quyidagi uch asosga tayanish kutilgan natijani beradi:

- 1) mamlakat amal qilayotgan milliy qadriyatlarga tayanish;
- 2) insoniyatning amaldagi umuminsoniy qadriyatlariga asoslanish;
- 3) tarbiyaning shaxs amaliy faoliyatida namoyon bo'lishi.

Bu uch asos maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu

sababli mazkur asoslar oliy pedagogik ta'lim jarayonida kutilgan darajada o'zlashtirishi taqozo etiladi.

Shunday qilib, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan amaliy ahamiyatga ega. Ayni paytda, bunday indikatorlar jamiyat ehtiyojlari, ta'lim-tarbiya amaliyoti va yangi ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning natijalari asosida muntazam ravishda yangilanib hamda takomillashirib boriladi.

Siz Pedagogika fanimiz va milliy ta'lim-tarbiyamiz jarayoni uchun yangi yo'nalish bo'lgan 5112200 – "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy tili (ingliz tili)" bakalavr ta'lim yo'nalishi hamda yangi fan bo'lgan "Bolalar pedagogikasi" bo'yicha ilk elektron-modulli darslik mazmuni bilan tanishdingiz. Bundan keyin darslikning mazmuni takomillashtirilib borilishi va uning xalqaro ta'lim dasturlariga mos ravishda tayyorlash jarayoni amalga oshirilishi eslatib o'tamiz.

Amaliy mashg'ulot

Quyidagi mavzular bo'yicha guruhlariga bo'linib onlayn tarzda trening o'tkazing:

1. Tarbiyalanganlik darajasini baholash asoslari.
 2. Tarbiyalanganlik darajasini baholash indikatorlari.
 3. Tarbiya asoslarini o'zlashtirganlikni rag'batlantirish asoslari;
 4. Tarbiyalanganlikning samaradorligini aniqlash asoslari.
- Trening natijalari o'quvchi tomonidan baholanadi.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

1. Tarbiyalanganlik darajasini baholash asoslarini o'zlashtirg.
2. Baholash indikatorlarini o'rganing.
3. Tarbiya asoslarining o'zlashtirganlikni rag'batlantirish asoslarini amaliyot davrida sinovdan o'tkazing.
4. Tarbiyalanganlikning samaradorligi asoslarini konspekt qiling.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. – T., 2020.
2. Jabborova O.M., Umarova Z.A., Boboxodjayeva L.M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. – T., 2021.
3. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Mualliflar jamoasi. – T., 1991.
4. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – T., 2022.

“BOLALAR PEDAGOGIKASI” O‘QUV FANI BO‘YICHA METODIK TAVSIYALAR

“Bolalar pedagogikasi” o‘quv fanining nazariy, didaktik, tarbiyaviy va amaliy asoslarini o‘zlashtirish jarayonida bir necha metodlarga asoslanish taqozo etiladi. Bunday metodlarning asosiy lari quyidagilardan iborat:

- 1) maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid qabul qilinayotgan yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan muntazam tanishib borish;
- 2) maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning xulosalaridan xabardor bo'lib borish;
- 3) maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid ilg'or pedagoglarning individual tajribalarini o'rganib borish.

Mazkur metodlarga asoslanish oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bo'yicha saboq beradigan bo'lajak pedagog kadrlar ko'nikma hosil qilishi taqozo etiladi. Kuzatishlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak chet tili o'qituvchilari til o'rgatish, nutq o'stirish va muomala madaniyatini kutilgan darajada o'zlashtiradi. Ayni paytda, maktabgacha va boshlang'ich ta'limda amalga oshiriladigan mashg'ulotlar jarayonida pedagogik metodlar hamda pedagogik qonuniyatlarga asoslanish bo'yicha kasbiy ko'nikmalarni kutilgan darajada shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan mazkur ta'lim yo'nalishi talabalarining quyidagi metodlarni chuqur o'zlashtirishi tavsiya etiladi:

1. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid qabul qilinayotgan yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan muntazam tanishib borish.* Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid eng muhim hujjatlarni o'zlashtirish mazkur yo'nalish bo'yicha bo'lajak pedagog kadrlar uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bu o'rinda eng asosiy hujjatlarning mazmunini taqdim etamiz:

- a) *O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi.* Hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2020-yil 15-may-dagi 287-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Bu o'rinda “ramka” deganda milliy malakalarning qoidalari, eng asosiy turlari va shakllari tushuniadi. Shu jihatdan maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarning barchasi ushbu Milliy malakalar ramkasi asosida ishlab chiqiladi.

Milliy makalar ramkasi 3-bob va 10 banddan iborat. Unda bo'lajak pedagog kadrlarning quyidagilarni o'zlashtirishi taqozo etiladi:

- bilimlar (bu kasbiy faoliyatning axborot hajmi, tushunchalarning innovatsiyaviyligi, nazariy hamda amaliy bilimlarning uyg'unligini anglatadi);
- mahorat va ko'nikmalar (bunda quyidagi ko'rsatkichlar nazarda tutiladi: kasb vazifalarini bajarishda variantlilik, ish holatining aniqligi va murakkab sharoitlarda ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish qobiliyatiga egalik);

- kompetensiyalar (bunda o'qituvchining rahbarlik qila olishi, mustaqil ijro intizomi hamda faoliyat samaradorligi nazarda tutiladi);

- malakani egallash yo'llari (bunda pedagog kadrlarning muntazam ravishda mustaqil ta'lim, malaka oshirish kurslari va qayta tayyorlash markazlarida o'qish bilan malakasini yuksaltirib borish ko'zda tutiladi).

Milliy makalar ramkasiga oid ana shu tushunchalar bo'lajak kadrlar tomonidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi va kelgusi faoliyatida malaka toifalarini belgilashda aynan ularning mazkur hujjat bo'yicha sinovlari amalga oshiriladi.

b) "Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi". Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat 2022-2026 yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda quyidagi vazifalar belgilangan (4-yo'nalish):

- mamlakatda sifati ta'limni amalga oshirish (bu o'rinda sifati ta'lim deganda nazariya va amaliyot uyg'unligi nazarda tutiladi);
- zamonaviy fikrlaydigan, innovatsion texnologiyalarni biladigan va pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbir etadigan oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash;
- 2026-yil 1-yanvarga qadar mamlakatimizda barcha tartibyalanuvchilarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olish;
- nodavlat notijorat maktabgacha ta'lim muassasalarini ko'paytirish bilan 50+50, ya'ni maktabgacha ta'lim tashkilotlarining 50 foizi nodavlat va 50 foizi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lishiga erishish;
- boshlang'ich ta'lim bosqichini umumiy o'rta ta'lim, ixtisoslashtirilgan va ijodiy ta'lim muassasalariga o'quvchilarni munosib tayyorlash tizimiga aylantirish;

- oliy pedagogik ta'lim muassasalarining mustaqilligini kengaytirish, ya'ni oliy ta'lim muassasalariga ehtiyojlardan kelib chiqib qo'shimcha kadrlar tayyorlash huquqlarini berish va h.k.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarga xorijiy til (ingliz tili) bo'yicha saboq beradigan pedagog kadrlar mazkur vazifalarni o'zlashtirishi bilan kasbiy kompetensiyalarini chuqurlashtirishga erishadi. Chunki bu pedagog kadrlar kelgusida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishi mumkin.

v) "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur". Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sonli farmoni bilan tasdiqlangan. Unda milliy pedagogik tajribamiz va xalqaro ta'lim dasturlariga asosan ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etish belgilangan. Eslatib o'tish joizki, Milliy o'quv dasturida o'quv fanlarini tabiiy, aniq va gumanitar fanlar turkumlariga bo'lib o'tish belgilangan.

Milliy o'quv dasturi quyidagi tartibda umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etiladi va ular uchun yangi avlod dasturlari amaliyotga kiritiladi:

- 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1-2-sinfda Milliy o'quv dasturi joriy etilgan, natijada 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ushbu sinflar uchun 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o'quvchilarning mashq daftarlari va pedagoglar uchun o'quv qo'llanmalar joriy etiladi;
- 2024-yil 1-sentyabr gacha qadar Milliy o'quv dasturi 3-4-sinfda to'liq joriy etiladi va qolgan 5-11-sinfda dasturni 2024-yil 1-yanvar gacha qadar joriy etish amalga oshiriladi;
- boshlang'ich ta'limda maxsus elektron tizimlar - S-testing, Onlinedu, Raqamli darsliklar va boshqalar orqali yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlari yaratiladi;
- boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi hamda ko'rsatkichlari past o'quvchilar bilan alohida mashg'ulotlarni amalga oshirish yo'lga qo'yiladi;
- boshlang'ich sinflar uchun xorijiy tabiiy va aniq fanlar bo'yicha o'quv qo'llanmalari hamda darsliklarini joriy etishga ruxsat beriladi (eslatib o'tish joizki, bu o'rinda Ona tili, Adabiyot, Tarix, Tarbiya va Huquq o'quv fanlari bo'yicha milliy darsliklardan foydalaniladi).

E'tibor berilsa, mazkur Milliy dastur bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning aniq bilim va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

g) "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaror. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-iyuldagi PQ-286-sonli Qarori bilan tasdiqlangan. Unda quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- mamlakatda bugungi talablar va ehtiyojlarga javob beradigan oliy pedagogik ta'lim jarayonini amalga oshirish;
- mutlaqo yangicha sharoitlar va vaziyatlarda faoliyat yuritga oluvchi oliy ma'lumotli pedagog kadrlar tayyorlash;
- oliy pedagogik ta'lim jarayonini qat'iy asosda 4+2 tartibi, ya'ni haftaning 4 kuni auditoriya mashg'uloti va 2 kuni haftalik amaliyot sifatida tashkil etish;

- Respublikamizda pedagogik universitet ta'limini joriy etish (Qaror bilan bugungi kunda Toshkent davlat pedagogika universiteti, Chirchiq davlat pedagogika universiteti va Jizzax davlat pedagogika universiteti faoliyat yuritayotganligini eslatib o'tish joiz).

Digat qilinsa, mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatni o'zlashtirish bo'lajak pedagog kadrlar uchun zaruriyat hisoblanadi.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bo'yicha saboq beruvchi bo'lajak pedagog kadrlar ana shu ta'limga oid eng muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'zlashtirishi taqozo etiladi. Bundan tashqari, faoliyat davomida yangidan qabul qilinadigan maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'zlashtirib borish metodi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalari tarkibiga kirishini eslatib o'tish joiz.

2. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning xulosalaridan xabardor bo'lib borish.* Mazkur metodga ko'ra, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim muammolariga oid pedagogik ilmiy-tadqiqotlar xulosalaridan bo'lajak o'qituvchilarning muntazam xabardor bo'lib borishi taqozo etiladi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- pedagogik ilmiy-tadqiqotlar fundamental, nazariy va amaliy turlarga bo'linadi (fundamental tadqiqotlarda maktabgacha va boshlang'ich ta'lim-

ning umumiy muammolari, nazariy tadqiqotlarda mazkur ta'lim jarayonining nazariyasi va metodlari hamda amaliy tadqiqotlarda esa ushbu ta'lim bosqichlarining samaradorlik ko'rsatkichlari ilmiy o'rganiladi);

- pedagogik ilmiy-tadqiqotlar xulosalarini o'rganishda monografiya kitoblari, o'quv qo'llanmalari hamda ilmiy maqolalar bilan tanishib borish kutilgan samarani beradi;

- bo'lajak o'qituvchilarning oliy pedagogik ta'lim jarayonida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish ko'nikmasini o'zlashtirishi zaruriyat hisoblanadi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoiti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagog kadrlarning o'quv, tarbiyaviy va amaliy faoliyat bilan birgalikda ilmiy faoliyat olib borishini ham taqozo etmoqda. Chunki imkoniyatlar doirasida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish sohaga oid yangiliklardan xabardor bo'lib borish, ta'lim va tarbiyaga oid muammolarni mustaqil hal etish hamda tarbiyalanuvchilarning o'zlashtirish jarayoniga kutilgan darajada erishish imkonini beradi. Bu borada, ayniqsa, xorijiy til (ingliz tili) bo'yicha saboq beradigan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi zaruriyat hisoblanadi.

Mazkur toifa pedagog kadrlarining quyidagi xalqaro ta'lim dasturlarini o'zlashtirishi ham ularning ilmiy faoliyat doirasiga kirishini eslatib o'tish joiz:

- TIMSS – boshlang'ich ta'limda matematika va uning tarkibidagi aniq fanlar kurslarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitish hamda o'quvchilarning masalalarni yechishda mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib topirish xalqaro dasturi;

- PISA – o'qib tushunish va o'z fikrini ijodiy bayon qila olish bo'yicha o'quvchilarning ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro ta'lim dasturi;

- PIRLS – Ona tili hamda o'quv materiallarini tahlil qila olish, ijodiy layoqat va ijodkorlik ko'nikmalarini o'quvchilarda shakllantirish bo'yicha xalqaro ta'lim dasturi;

- STEAM – tabiiy, muhandislik hamda san'at fanlarini uyg'unlik asosida o'qitish bilan o'quvchilarning ixtirochilik, kashfiyotchilik va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro ta'lim dasturi.

Bu xalqaro ta'lim dasturlari kelgusida bosqichma-bosqich ta'lim tizimiga, jumladan, boshlang'ich ta'lim jarayoniga joriy etiladi. Misol uchun, bu borada TIMSS xalqaro ta'lim dasturi bo'yicha bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakaga ega ekanligi 2023-2024 o'quv yili yakunida tajriba-sinov ishlari o'tkaziladi. Shu sababli xorijiy til (ingliz tili) bo'yicha saboq beruvchi bo'lajak o'qituvchilar mazkur xalqaro ta'lim dasturlarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'rganish metodikasini o'zlashtirib borishi taqozo etiladi.

3. *Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid ilg'or pedagoglarning individual tajribalarini o'rganib borish.* Ushbu metodga ko'ra, bo'lajak pedagog kadrlar oliy pedagogik ta'lim jarayonida va amaliy faoliyat davrida muntazam ravishda tajribali pedagoglarning individual uslublarini o'rganib borishi taqozo etiladi. Chunki muayyan tajribali pedagoglarning individual tajribalari o'qituvchilar uchun quyidagi mahorat asoslarini beradi:

- dars mashg'ulotlarini o'qitishning noan'anaviy shakllari va texnologiyalari asosida o'tkazish;
- saboqlarni o'zlashtirishda murakkablikka duch keluvchi o'quvchilar bilan individual ishlash asoslari;
- o'quvchilar guruhini o'zlashtirish jihatidan faollashtirish metodlari;
- o'quvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar bilan ishlashning o'ziga xos noan'anaviy shakllari;
- o'quvchilarning yutuqlari va o'zlashtirish jarayonini o'z vaqtida baholash hamda ularni to'g'ri yo'naltirish yo'nalishlari.

Bunday tajribalar o'qituvchilar uchun muhim yo'naltiruvchi amaliy imkoniyatlarni beradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, xorijiy mamlakatlarning, masalan, Rossiya Federatsiyasi o'qituvchilarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar muntazam ravishda o'zaro tajriba almashib boradi. Natijada, muayyan tajribali pedagogning individual uslublari tez o'zlashtiriladi va ular asosida dars mashg'ulotlarini tashkil etish kutigan samarani beradi.

E'tibor berilsa, oliy pedagogik ta'lim jarayonida maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarga xorijiy til (ingliz tili) bo'yicha saboq beruvchi pedagog kadrlarning oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'ziga xos metodlarni o'zlashtirishi zaruriyat hisoblanadi. Chunki bu masala ularning

kasbiy kompetensiyalarini kutilgan darajada shakllantirish masalasi bilan bog'liq.

"Bolalar pedagogikasi" o'quv fanining asosiy maqsadi va vazifalaridan biri bo'lajak pedagog kadrlarning maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodlari bilan qurallantirishdan iborat. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilar individual tarzda metodlarni o'zlashtirib borishi taqozo etiladi. Metodlarni o'zlashtirishning eng asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

1) maktabgacha va boshlang'ich ta'lim darsliklarini chuqur o'zlashtirish;

2) haftalik amaliyot davrida umumiy o'rta ta'lim maktablarning tajribali o'qituvchilari bilan birgalikda ishlash;

3) o'zlashtirilgan metodlarni haftalik amaliyot davrida tajriba-sinovdan o'tkazish;

4) metodlarni o'zlashtirish bo'yicha tashabbuskor bo'lish va muntazamlikka rioya qilish.

"Bolalar pedagogikasi" o'quv fani maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) ta'limini amalga oshiruvchi bo'lajak pedagog kadrlar uchun eng muhim mutaxassislik fanlaridan biri ekanligini eslatib o'tish joiz. Mazkur fan bo'yicha o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar o'qituvchilarning kelgusi amaliy faoliyatida kasbiy malaka sifatida muhim o'rin tutadi. Shu sababli mazkur dastirlikning o'quv materiallarini amaliy o'zlashtirish tavsiya etiladi.

MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI VA TOPSHIRIQLARI

1. "Bolalar pedagogikasi" tushunchasining mazmuni.
2. "Bolalar pedagogikasi" – Umumiy pedagogikaning tarkibi sifatida.
3. "Bolalar pedagogikasi" ni o'rganishning ahamiyati.
4. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'ri-sida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
6. Davlat ta'lim standartlarida 3-11 yoshli bolalar ta'limiga qo'yiladigan talablar.
7. Maktabgacha ta'limda 3-6 yoshli bolalarga ta'lim berish mazmuni.
8. Bolalarni o'qish, yozish, sanoq va chizishga ko'niktirish.
9. Bolalarni maktabga tayyorlash asoslari.
10. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bilim berish xususiyatlari.
11. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'nikmasini shakllantirish.
12. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining layoqat kompetensiyasini rivojlantirish.
13. Intellektual rivojlantirish mazmuni.
14. 3-11 yoshli bolalarning qiziqish, savodxonlik va fikrlash ko'nik-masini shakllantirish.
15. 3-11 yoshli bolalarni ijodkorlik va faollikka o'rgatish.
16. Didaktika tushunchasining mazmuni.
17. "Bolalar pedagogikasi"da o'qitish va o'qish kategoriyalari.
18. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tizimi.
19. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish qonuniyatlari.
20. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish tamoyillari.
21. 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning didaktik vositalari.
22. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish metodlari.
23. 3-11 yoshli bolalarni o'qitishning pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalari.
24. 3-11 yoshli bolalarni o'qitish texnologiyalariga qo'yiladigan pedagogik va psixologik talablar.

25. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni o'qitish shakllarini tushlash talablari.
26. Maktabgacha ta'limda o'yin dars shakllari.
27. Boshlang'ich ta'limda dars shakllari va uslublari.
28. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholash asoslari.
29. Rag'batlantirish metodi.
30. Baholashning ta'lim va tarbiyadagi ahamiyati.
31. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarni tarbiyalash tushunchasi.
32. Tarbiya nazariyasining xususiyatlari.
33. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda tarbiyani amalga oshirish talablari.
34. 3-11 yoshli bolalarni tarbiyalash tizimi.
35. Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar.
36. 3-6 yoshli bolalarni ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyalash asoslari.
37. Maktabgacha ta'limda tarbiya samaradorligi.
38. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashga qo'yiladigan talablar.
39. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy, ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiyalash xususiyatlari va ularning mehnat tarbiyasi.
40. Boshlang'ich ta'limda tarbiya samaradorligi.
41. Sensor tarbiya tushunchasi.
42. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim oluvchilarning sezgi va idrokini rivojlantirish asoslari.
43. Sensor tarbiya metodlari.
44. Sensor tarbiyaning samaradorligi.
45. Tarbiyalanganlik darajasini baholash asoslari.
46. Baholash indikatorlari.
47. Tarbiya asoslarini o'zlashtirganlikni rag'batlantirish.
48. Tarbiyalanganlikning samaradorligi.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // www.ziyounet.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni // www.ziyounet.uz.
3. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim davlat standartlari va malaka talablari // www.ziyounet.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standartlari hamda malaka talablari // www.ziyounet.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. // www.ziyounet.uz.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi davlat oliy pedagogik ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // www.ziyounet.uz.
7. Ананьев Б.Г. Психология чувственного познания. – М., 1960.
8. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика. – Санкт-Петербург. "Питер". 2001.
9. Гессен С.И. Основы педагогики. – Москва, 1995.
10. Jabborova O.M., Umarova Z.A., Voboxodjaeva L.M. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. Toshkent, 2021.
11. Jabborova O.M. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – T., 2022.
12. Jumanova F. va boshq. Umumiy pedagogika asoslari. Toshkent, 2020.
13. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: "Fan". 2001.
14. Karimjonov A., Ochilov F. Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya muammolari (ilg'or o'qituvchilar tajribasidan). – Toshkent, 2021.
15. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021.
16. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T., 2017.
17. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, "O'qituvchi". 1991.
18. Монтессори М. Метод научной педагогики. // История дошкольной зарубежной педагогики. Хрестоматия. – М.: "Просвещение". 1974.
19. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. 2000.
20. Umarova Z.A. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish. – T., 2021.
21. Qodirova F. va boshq. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2019.
22. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: "Fan va texnologiya". 2009.

GLOSSARIY

Bolalar – mazkur “Bolalar pedagogikasi” o’quv fanida nazarda tutiladigan 3-11 yoshli shaxslar. Bu yoshdagi bolalarga aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik va ruhiy jihatdan tadrijiy rivojlanib borish xususiyatlari xos bo’ladi.

Boshlang’ich ta’lim – mamlakatimiz ta’lim tizimining uzviy bosqichi bo’lib, uning vositasida 7-11 yoshli bolalarga bilim, ko’nikma va malaka beriladi. Boshlang’ich ta’lim o’quvchilarni keyingi ta’lim bosqichiga tayyorlaydi.

Didaktika – Pedagogika fanining ta’lim va o’qitish nazariyasi, amaliyoti hamda metodlari bilan shug’ullanuvchi bo’limi bo’lib, unda ta’lim va tarbiyaning qonuniyatlari belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim – mamlakatimiz ta’lim tizimining bosqichlaridan biri bo’lib, uning vositasida 6 yoshgacha bo’lgan bolalar tarbiyalanadi. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifalaridan biri 3-6 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat. Keyingi besh yil davomida mamlakatimizda maktabgacha ta’limning mazmuni, vazifalari va faoliyat asoslari kuchaytirildi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – mamlakatimizda 3-6 yoshli bolalarni tarbiyalash, ularga ta’lim berish va ularni maktab ta’limiga tayyorlashning nazariy, didaktik hamda metodologik asoslari bilan shug’ullanuvchi hamda Pedagogika fanining tarkibiga kiruvchi fan. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi bugungi kunda axborot-kommunikatsion vositalarga asoslangan texnologiyalarga binoan takomillashib bormoqda.

Maktabgacha ta’lim pedagogi – O’zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonuniga binoan, maktabgacha ta’lim asoslari bo’yicha o’rta maxsus va oliy ma’lumoti ta’lim olgan, pedagogik qobiliyatga ega hamda o’zligida bolaparvarlik fazilatlarini mujassam etgan shaxs maktabgacha ta’lim pedagogi sifatida e’tirof etiladi. Maktabgacha ta’lim pedagogi bola shaxsini ta’lim va tarbiya olamiga olib kiruvchi eng muhim kasb egasi hisoblanadi.

Maktabgacha va boshlang’ich ta’limda xorijiy til (ingliz tili) – 3-11 yoshli bolalarga xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini o’qitish uchun o’qituvchilar tayyorlovchi yangi ta’lim yo’nalishi. Mazkur ta’lim yo’nalishi-

ning nazariy, didaktik va metodologik asoslari bugungi kunda tadqiq etilmoqda. Jumladan, mazkur masalada ushbu “Bolalar pedagogikasi” elektron-modulli darslikdan ma’lumotlar olish mumkin.

Xalqaro ta’lim dasturlari – bugungi kunda jahon ta’lim tizimida amalda bo’lib kelayotgan ta’lim dasturlari majmui. Bunday dasturlardan eng muhimlarini TIMSS, PISA, PIRLS va STEAM xalqaro ta’lim dasturlari tashkil etadi. Mamlakatimiz 2022-yil aprel-may oylarida ta’lim sohasida turtinimida ilk bor PISA xalqaro dasturi bo’yicha 15 yoshli o’quvchilar o’rtasida tadqiqot o’tkazdi. Shuni eslatib o’tish joizki, milliy ta’lim tizimini xalqaro ta’lim dasturlari asosida baholash mazkur tizimning nazariy, amaliy va metodik samaradorligini aniqlashda, ta’lim-tarbiya jarayonining navbatdagi yo’nalishlarini belgilashda hamda shaxsda ta’lim-tarbiyaviy kompetensiyalarning mavjudlik darajasini o’rganishda muhim ma’lumotlar va imkoniyatlarni beradi.

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligining 2022 yil "9" sentabr dagi
302"-sonli buyrug'iga asosan

O.M. Jabborova, q.I. Ochilov

(muallifning familiyasi, ismi-sharifi)
60112600-Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)

(ta'lim yo'nalishi (mavzusi, tili, g'rafi))

ning
talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Bolalar pedagogikasi nomli darsligi

(o'quv uchilari yozilgan nomi va barcha darslik, o'quv yo'nalishi)

ga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat
berildi.



Vazir 
(imzo) A. Toshkulov

Ro'yxalga olish raqami

302-0876



Onaxon Mannapovna JABBOROVA
Fariddun Izatulloevich OCHILOV

BOLALAR PEDAGOGIKASI

(60112600 – "Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda
xorijiy til" (ingliz tili) bakalavr yo'nalishi
talabalari uchun DARSLIK)

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquliyeva
Musahih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020.
Bosishga ruxsat etildi 05.12.2022.
Bichimi 60x84 1/16. Offset qog'ozi. "Times New Roman"
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 15,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 146.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

QAYDLAR UCHUN

[illegible]